


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**KIMYO KAFEDRASI**

**KVANT MEXANIKA VA  
KVANT KIMYO**

**fanidan o'quv- metodik majmua**



**GULISTON-2022**

**U.K.Abduraxmanova. «Kvant mexanika va kvant kimyo» fanidan o'quv-metodik majmua. Guliston. 2022.**

O'quv-metodik majmua 70530100- Kimyo bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, unda Kvant mexanika va kvant kimyo fani predmeti va vazifalari, elementar zarrachalarning xossalari, ularning qonuniyatlari, elektronning to'liqsimon xarakati unga mos keluvchi energiyasini hisoblash imkonini beruvchi Shredinger tenglamasi, Geyzenbergning noaniqlik munosabatlari, Operatorlar algebrasi, Kimyoviy bog'larning kvant mexanik tasnifi, hamda kovalent bog' hosil bo'lishini molekulyar orbitallar usulida izoxlashga doir ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ko'rilgan nazariy muammolarning matematik echimlari keltirilgan.

O'quv-uslubiy majmua zamonaviy pedagogik texnologiya talablariga mos ravishda tayyorlangan bo'lib, unda darsning maqsadi, identiv o'quv maqsadlari, mavzuda ko'rib chiqiladigan muammolar, nazorat savollari va mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan.

Taqrizchi: T.M.Boboev - O'zMU Kimyo fakulteti k.f.d., professor

**Guliston davlat universiteti o'quv-metodik Kengashi tomoni («28.08» 2022 yil №1 sonli bayonnoma) dan nashrga tavsiya etilgan.**

## SO'Z BOSHI

Oliy ta'lim muassasalarining 70530100-Kimyó ta'lim yo'nalishlarida «Kvant mexanikasi va kvant kimyosi» fanidan o'quv kursi o'tilishi rejalashtirilgan. Ushbu fan bo'yicha tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturi (GulDU, 2022) da keltirilgan adabiyotlarning barchasi XX asrning etmishinchi yillarigacha nashr qilingan bo'lib, keyingi vaqtlarda e'lon qilingan qator manbalardagi ma'lumotlar to'la qamrab olinmagan. Bundan tashqari dasturda tavsiya qilingan adabiyotlar rus tilida yozilgan bo'lib, ulardan foydalanishda talabalar bir qator qiyinchiliklarga duch keladilar.

Shu sababli muallif o'zining Kvant mexanikasi va kvant kimyosi fani bo'yicha davlat tilidagi qisqacha lektsiyalar kursini, amaliy mashg'ulot va mustaqil ishlarini bajarish tartiblarini o'z ichiga olgan o'quv-metodik majmua yaratishga harakat qildi. O'quv-metodik majmuaga asos qilinib 2003 yilda tayyorlangan « Kvant mexanikasi va kvant kimyosidan ma'ruzalar to'plami» va ishlab chiqilgan « Kvant mexanikasi va kvant kimyosi » fanidan o'quv uslubiy majmuasi, shuningdek « Kvant mexanikasi va kvant kimyosi »dan mustaqil ish topshiriqlarini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalari asos qilib olindi. Ushbu ishlar 2010-2022 yillarda universitetning kimyo ta'lim yo'nalishida sinovdan o'tdi va kamchiliklari tuzatib borildi.

Ma'ruzalar kursi zamonaviy pedagogik texnologiya talablariga mos ravishda qayta ishlanib, unda mavzuga oid muammolar, o'quv maqsadlari, nazorat savollari va mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan. Lektsiyalar kursini tayyorlashda shu sohaga oid dissertatsiya ishlari, jurnallardagi ilmiy maqolalar hamda internetdan olingan materiallardan keng foydalanildi. Har bir mavzudan keyin shu masalaga tegishli ilmiy ishlar ro'yxati berilgan bo'lib, talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni olish mumkin.

Mazkur o'quv-metodik majmua « Kvant mexanikasi va kvant kimyosi » fanidan davlat tilida yaratilgan dastlabki o'quv qo'llanmalaridan biri bo'lgani sababli kamchiliklardan xoli emas, shuning uchun, o'zining mulohaza va foydali maslahatlarini bergan barcha olimlarga muallif o'z minnatdorchiligini bildiradi.

**Manzilimiz:** Guliston shahri, IV mavze. Universitet, «Kimyo» kafedrası

# 1-mavzu: **KIRISH. KVANT NAZARIYA. KVANT MEXANIKASINING TAJRIBAVIY ASOSLARI**

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** Kvant, materiya, elementar zarracha, atom, elektron, lakton, adron, yorug'lik kvantlari, fotoeffekt, mikrozarracha, makrosistema.


## **REJA:**

1. Kvant mexanikasi va klassik fizika orasidagi bog'liqlik. . Kvant kimyosi haqida umumiy tushuncha;
2. Kvant mexanikasining tajribaviy asoslari.
3. Kvant nazariya haqida umumiy tushuncha.
4. Rentgen nurlari va Radioaktiv nurlar.

Mikroxodisalar nazariyasi – kvant mexanik nazariya bo'lib, bu nazariyadan mukammalroq, kengroq va chuqurroq nazariya yaratilmagandir.

Faqat shuni aytib o'tish o'rinliki, kvant mexanikasini yorug'lik tezligida harakat qiluvchi zarrachalardan iborat bo'lgan sistemalarga tadbiiq qilib bo'lmaydi, ya'ni relyativistik soxada zarrachalarga tadbiiq etilmaydi.


Kvant mexanikasi erkinlik darajasi chegaralangan tugallangan songa ega bo'lgan sistemalar mexanikasidir. Bu qarashda kvant mexanikasi klassik (Nyuton) mexanikasiga o'xshashdir (klassik mexanikaning analogidir). Agarda zarrachalarning harakat tezliklari yorug'lik tezligiga solishtirarli darajada etsa, bunday xolda erkinlik darajalarining biror bir tugallangan songa tengligi xaqida fikr yuritishimiz mumkin bo'lmay qoladi.



**1-rasm. Kvant zarrachalarning xarakat yo'nalishi.**

Yorug'lik tezligida xarakat qilayotgan zarrachalarning xossalarini o'rganayotganda ular xosil qilayotgan elektromagnit maydon tarqalish tezligining (oxirgi tugallangan) kattaligini xisobga olmasdan iloji yo'q. Masalan:  $\Delta t$  vaqt


oralig'ida zarrachalar orasidagi  $r_{jk}$  masofa  $\Delta r_{jk}$  ga o'zgarsin deylik, u xolda  $\Delta r_{jk}F\Delta t$  zarrachalarning nisbiy tezligi yorug'lik tezligiga teng bo'lgan shartda, elektromagnit maydonning  $\Delta r_{jk}$  masofaga tarqalishi uchun taxminan shunday vaqt talab qilinadi.



**2-rasm. Xar bir zarracha o'zining ma'lum bir magnit maydonini tashkil qiladi.**

Shuning uchun zarrachalar bilan birgalikda elektromagnit maydonni xam xisobga olishimiz kerak, chunki bu maydon shu zarrachalar tomonidan yaratiladi va ularga ta'sir qiladi. Boshqacha qilib aytganda sistemaga nafaqat xamma zarrachalar kiritilishi kerak (Zarrachalar  $3n$  erkinlik darajasini ( $n$  ta spinga ega bo'lmagan zarrachalar uchun) va  $n$  ta spinga ega bo'lgan zarrachalar uchun  $4N$  erkinlik darajasini beradi), balki elektromagnit maydon xam kiritilishi shart, elektromagnit maydonning xolati esa cheksiz erkinlik darajalari bilan ifodalanadi.

Bu elektromagnit maydon xam kvant nazariyasi asosida ko'rilishi kerak, chunki fotonlar yordamida energiya xam, impuls xam uzatilishi bizga aniq.



**3-pacm. Lahzali aloqa kvant teleportatsiyasining so'nggi yozuvlari.**

Agar fotonlarning yoki zarralarning energiyasi zarralarning xususiy energiyasidan  $m_0s^2$  dan katta bo'lsa, u xolda zarralar paydo bo'lishi va yo'qolishi mumkin. Masalan,  $\hbar\omega \geq 2m_0c^2$  energiyaga ega bo'lgan foton  $\gamma$  yo'q bo'lishi

mumkin va 2 ta zarraga aylanishi mumkin: elektron ( $e^-$ ,  $m_0$ ) va neytron ( $e^+$ ,  $m_0$ ) ga. Aksincha, pozitron va elektron fotonga aylanishi xam mumkin.

Bu aylanish jarayonlarni quyidagicha sxematik ifodalash mumkin:

$$\gamma \leftrightarrow e^+ + e^- \quad (1)$$


Keltirilgan misolda zarrachalar elektromagnit ta'sir natijasida paydo bo'ladi va yo'qotadi.

Boshqa bir jarayonlar borki, ularda zarrachalarning paydo bo'lishi kuchli o'zaro ta'sir natijalarida sodir bo'ladi. Misol qilib quyidagi reaksiyani keltirish mumkin:

$$\pi^- + p \rightarrow \Lambda + K^0 \quad (2)$$

Bu jarayonda  $\pi^-$  mezon proton bilan to'qnashishi natijasida 2 ta ajoyib, g'aroyib zarralar tug'iladi: geperon  $\Lambda$  va koan  $K^0$ .

Yana bir xol borki, bunda elementar zarralar kuchsiz ta'sirlar yordamida xam bir-biriga aylanadi, bu esa zarralarning radioaktiv parchalanishiga olib keladi.



**4-rasm. Materiyaning tajribalar natijasida aniqlangan yangi holati.**

Masalan: neytron spontan xolda protonga aylanadi, bunda elektron  $e^-$  va antineytrino  $\bar{\nu}_e$  nurlanadi ( $\sim$  belgi bilan antizarra belgilanadi;  $\nu_e$  elektron neytrinosi, myuon neytrinosi  $\nu_\mu$  xam mavjuddir):

$$n \rightarrow p + e^- + \bar{\nu}_e \quad (3)$$

Yadrolarning radioaktiv, pozitron parchalanish xolida teskari reaksiya xam kuzatilishi mumkin:

$$p \rightarrow n + e^+ + \nu_e \quad (4)$$

Mezonlar xam parchalanishi mumkin, xususan,

$$\mu \rightarrow e^+ + \nu_e + \bar{\nu}_\mu \quad (5)$$

$$\pi^+ \rightarrow \mu + \nu_\mu \quad (6)$$

Keltirilgan sxemalarni solishtirish, masalan (3), neytronni proton va elektrondan iborat bo'lgan murakkab zarrachadan iborat deb xisoblash mumkin

emasligini ko'rsatadi. Xuddi shunday protonni (4) xam neytron va pozitronidan iborat murakkab zarra deb aytish mumkin emasdir. Biz bu erda tayyor zarralarni chiqarib tashlash xodisalari bilan emas, balki yangi zarralarning tug'ilish jarayonlari bilan to'qnashayapmiz:

$$n \Leftrightarrow p$$

o'zaro o'tishlarda  $e^0, e^-, \nu_e, \bar{\nu}_e$  lar tug'ilayapti (bu jarayon xuddi atom tomonidan nurlanayotgan yorug'lik kvanti atomning ichida tayyor xoldi mavjud bo'lmasdan, balki g'alayonlangan qo'zg'algan elektron energiyasining nurlanish energiyasiga aylanishi natijasida yangidan paydo bo'lishi jarayoniga o'xshashdir).

(5.6) reaksiyalarda xam biz mezonlarning tayyo zarralarga parchalanishi bilan emas, balki ularning o'zaro o'tishi, yangi zarrachalarning paydo bo'lishi bilan to'qnashayapmiz.

Bir necha yo'l bilan parchalanayotgan zarralarni misol qilib olsak, bizning yuqoridagi fikrimiz yanada ishonchliroq ko'rinadi. Masalan, bitta  $K^0$  – mezon 5 xil usul bilan parchalanishi mumkin.

$$K^0 \rightarrow 3\pi^0 \text{ 21.5\%}$$


$$K^0 \rightarrow \pi^+ \pi^- \pi^0 \text{ 12.7\%}$$

$$K^0 \rightarrow \pi^\pm \mu^\pm \nu \text{ 28.1\%}$$

$$K^0 \rightarrow \pi^\pm e^\pm \text{ 37.7\%}$$

$$K^0 \rightarrow \pi^+ \pi^- \text{ 0.157\%}$$

Keltirilgan misollarda zarrachalar sistemasining mexanikasiga tegishli (mexanikasi bilan umumiy) bo'lgan xech narsa yo'q zarrachalar sonining o'zi ham va uning talbiati ham tubdan o'zgarayapti. Bu xodisalarda biz aniqlanmagan, topilmagan va cheksiz katta songa ega bo'lgan erkinlik darajali sistemalar bilan ish ko'rmoqdamiz. Bundan sistemalar material zarrachalarning mexanik sistemalariga ko'ra ko'proq maydonlarga qarindoshdir.



**5-rasm. Atom ham zarracha, ham to'lqin xususiyatga ega.**

Xususan, katta energiyaga ega bo'lgan zarrachalar – elektronlar, protonlar, neytronlar, atom yadrolari, atomlar (va boshqalar) bilan fotonlar orasidagi chegara yo'qoladi. Kvant mexanikasi predmetini elektron protonlar (va boshqalar) kabi zarralarning harakatini boshqaruvchi qonuniyatlarni o'rganish tashkil qiladi. aksincha fotonlar esa elektromagnit maydon nazariyasini o'rganuvchi ob'ekt sifatida qaraladi. Bu chegara (foton bilan zarralar orasidagi) shunga asoslanganki, zarralar tinchlik massasiga  $m_0$  ga ega bo'lsa, fotonlar  $m_0$  ga ega emasdir. Shuning uchun zarrachalar ( $m_0$  ga ega bo'lgan) norelyativistik  $E \ll m_0 C^2$  energiyalarda o'zgarish bo'ladi va yangidan paydo bo'la olmaydi.

Aksincha, fotonning tinchlik massasi nolga teng bo'lgani uchun, u xamma xollarda, xar qanday kichik energiyalarda tug'ilishi va yo'qolishi mumkin bo'lgan relyativistik zarrachalardir (tezligi xar doim yorug'lik tezligiga teng).


Agar zarrachaning energiyasi uning tinchlik xolatidagi energiyasi bilan solishtirarli darajadabo'lsa, bunday zarrachalar fotonlarga o'xshab tug'ilishi, yo'qolishi va bir-biriga aylanishi mumkin bo'lib qoladi. Shuning uchun yuqori energiyalarda ayni zarrachaning sistemasi haqida emas, balki elektron-pozitron maydoni, mezon maydoni, proton yoki neytron maydonlari xaqida so'z yuritsak maqsadga muvofiq bo'ladi. (fotonlar haqida gapirganimizda, biz elektromagnit maydonning kvant nazariyasini nazarda tutganimiz kabi).

### **Kvant mexanikasining tajribaviy asoslari**

Kimyo va fizika fanlarining dastlabki rivojlanish davrida eng qiziqarli va ahamiyatga ega bo'lgan muammo nurlanish energiyasining tabiatini o'rganish bo'lgan. XVIII asrning ohirigacha ko'p fiziklarning fikricha ko'zga ko'rinuvchi nur juda kichik zarrachalardan tashkil topgan bo'lib, ular yorug'lik manba'idan o'q singari otilib chiqadi, deb o'ylashgan. Bunday korpuskulyar (zarra) nazariya 1675 yil Isaak Nyuton tomonidan Qirol jamiyatiga qilingan axborotida talif qilingan bo'lib, butun dunyoda tan olingan. Lekin ayrim olimlar Nyuton nuqtai nazari bilan kelishmaganlar. Gyuygens degan olim Nyutondan avvalroq yorug'likning to'lqin nazariyasini taklif qilgan va bu nazariyani Guk quvvatlagan. Ularning fikricha yorug'lik, suv to'lqinlari singari, tebranma harakatga egadir. Lekin 19 asrgacha Nyutonning korpuskulyar nazariyasi hukmronlik qildi.

1800 yil Tomas Yung korpuskulyar nazariyaga qarshi o'zining birinchi ilmiy ishini chop etganda hali yorug'likning tabiatiga qarashlarda xech qanday o'zgarishlar bo'lmagan edi. Bu ishda Yung yorug'likning qaytish va sinish xodisalarini tushuntirishda to'lqin nazariyasining afzalliklarini ko'rsatib bergan edi.





### 6-rasm: Kvant zarrachalarining xarakat.

Keyinchalik 1801 yilda Yung interferentsiya xodisasini va xodisa yordamida Nyuton halqalarini tushuntirib berdi (bundan avvalroq Nyuton bu xodisalarni korpuskulyar nazariya asosida tushuntirib bergan edi). Yung shuni ko'rsatib berdiki, agar monoxromatik yorug'lik manbaining nurlarini diagrammadagi 2 ta teshikka fokuslansa, ekranda bir qator chiziqlar paydo bo'ladi. Bu chiziqlarning joylashishini to'lqin nazariyasi yordamida interferentsiyadan foydalanib oson tushuntirib berish mumkin.

Bu ikki teshikdan nurlar o'tishi bilan ulardan keyin yorug'lik to'lqinlari tarqaladi. Agar biror to'lqinning qirradi (cho'qqisi) ikkinchi to'lqinining cho'qqisi bilan mos kelsa, bunda kuchlanish sodir bo'ladi va ekranda yorug' chiziq paydo bo'ladi. Agar biror to'lqinning cho'qqisi ikkinchi bir to'lqinning ezik qismi bilan mos kelsa yorug'lik susayadi va ekranda qoramtir chiziq paydo bo'ladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, agar 2 ta teshikdan o'tayotgan yorug'lik to'lqinlarining bosib o'tgan yo'llaridagi farq butun songa teng bo'lsa, to'lqinlarning fazalari bir-biriga mos keladi va kuchlanish kuzatiladi, aks xolda (farq butun songa teng bo'lmasa) fazalar bir-biriga mos kelmaydi va to'la susayish kuzatiladi. Demak, yorug' chiziqni quyidagi xolda kuzatish mumkin.

$$n\lambda = d \sin \varphi$$

qoramtir chiziqni

$$(n + 1/2)\lambda = d \sin \varphi$$

o'lganda kuzatiladi. Bu erda:


$n$  – butun son;

$\lambda$  - to'lqin uzunligi;

$d$  – teshiklardan o'tayotgan yorug'lik to'lqinlari orasidagi masofa;

$\varphi$  - burchak

Interferentsiya xodisasining ochilishi to'lqin nazariyasining uzil-kesil g'alabasi desak bo'lar edi, lekin Yung korpuskulyar nazariyaning ustidan to'la g'alaba qila olmadi, xatto olim do'stlari tomonidan kulgu bo'ldi. keyinchalik 1815 yilda Frensl yana interferentsiya xodisasini tekshirdi va to'lqin nazariyasini matematik jixatdan isbotlashni boshlab berdi.



**7-rasm. Kvant zarralar xarakatidagi chigalligi(kvantovaya zaputannost) .**

Frenklning ilmiy ishini korpuskulyar nazariya tarafdorlari rad eta olmadilar va Gyugensning to'liq nazariyasi uning o'limidan 100 yildan ko'proq vaqt o'tgandagina tan olindi. 19 asr davomida to'liq nazariyasini isbot qiluvchi yana bir qancha tajriba asosida olingan dalillar paydo bo'ldi va 20 asrning boshiga kelib, olimlar dunyosida yorug'lik to'liq tabiatiga egaligi haqida fikr xech kim tomonidan inkor etilmagan, xuddi bundan 100 yil avval yorug'likning korpuskulyar tabiatga ega ekanligini tan olgani kabi. Shuning uchun 19 asrning oxiriga kelib fiziklar orasida nazariya tugallangan degan fikr xukm suradi.

Fizikaning mexanika va elektrodinamika kabi klassik qismlari tabiatda kuzatilayotgan xamma xodisalarni tushuntira oladi, shuning uchun o'rganish uchun boshqa tekshirilishi kerak bo'lgan yangi ob'ektlar yo'qdek tuyular edi. Shunday bir paytda kutilmagan tajribaviy kashfiyotlar qilindi. 1895 va 1898 yillar oralig'ida Rentgen X – nurlarni, Bekkerl – radioaktivlikni va Tomson – elektronni kashf etdi. Bu kashfiyotlar bilan birgalikda elektromagnit nurlanishning tabiatini to'la tushuntirish xam kirib keldi.

Mutlaqo qora jismning nurlanishini o'rganish bilan birgalikda, yana bir qancha boshqa tajribaviy dalillar yangi nazariyani yaratish kerakligini ko'rsatdi va bu yangi kvant nazariyasining kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Hozirgi paytda kvant nazariyasiz fizika va kimyoning hech qanday qismini to'la tasavvur qilish mumkin emasdir.

19-asr fizika va kimyo fanlari asosan nurlanish (Gyuygens, Yung, Frenel) energiyasining tabiatini o'rganib, asr ohiriga kelib yorug'lik to'liq tabiatiga ega degan fikr to'la xukmronlik qilgan (18-asrning oxirida esa yorug'likning korpuskulyat tabiatga ega ekanligi to'la tan olingan edi). Shunday qilib, fiziklar orasida 19-asrning oxirida yorug'lik haqida nazariya tugallangan degan fikr hukm surgan. Fizikaning mexanika va elektrodinamika kabi klassik qismlari tabiatda kuzatilayotgan xamma xodisalarni tushuntira oladi, shuning uchun o'rganishga boshqa tekshirilishi kerak bo'lgan yangi ob'ektlar yo'qdek tuyular edi. Shunday bir paytda 1895 va 1898 yillar oralig'ida Rentgen nurlanish X – nurlarni, Bekkerl – radioaktivlikni va Tomson – elektronni kashf etdi. Mutlaqo qora jismning nurlanishini o'rganish bilan birgalikda, yana bir qancha boshqa tajribaviy dalillar paydo bo'ldiki, bularni to'liq nazariyasi tushuntirib bera olmadi. Xuddi shu

dallillar yangi nazariyani yaratish kerakligini ko'rsatdi. Va bu yangi kvant nazariyasining kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Xozirgi paytda kvant nazariyasiz fizika va kimyo qonun va tushunchalarini to'liq tasavvur qilish mumkin emasdir.

**Katod nurlar.** 1895 yil Kruks gazlarda elektr zaryadini tekshirayotgan paytda shisha trubkada shishining yorug'lanishini kuzatadi. Agarda katodning qarshisidagi shishaning ichki devorlarini fosforestsentsiyalanuvchi modda bilan qoplansa, trubkaning shu tomoni qattiq yorug'lanadi. Kruks katod bilan trubkaning devori orasidagi kichik to'siq qo'yganda, yorug'lanish qismida (fosforestsentsiyalanuvchi modda surilgan devorda) to'siqning soyasi paydo bo'ldi. Bundan Kruks shunday hulosaga keldiki, katoddan chiqayotgan nurlar to'plami xuddi yorug'lik nurlari singari to'g'ri chiziq bo'ylab tarqaladi. Lekin yorug'lik nurlaridan farqli o'laroq katod nurlari magnit va elektr mayonlaridan og'ish (chetlanish) hususiyatiga ega bo'lgan. Og'ishning yo'nalishini to'siqning soyasi harakati bo'yicha aniqlanadi va katod manfiy zaryadga ega ekanligi ko'rsatilgan. Kruks bu nurlarni katod nurlari deb atadi va ular o'zini xuddi zarrachalar kabi tutishini demak katod nurlari manfiy zaryadlangan zarrachalar oqimi ekanligini ko'rsatib berdi:

**Elektronning ochilishi.** Tomson katod nurlashrining elektr va magnit maydonlarida og'ishini o'rganayotganda zaryadning massaga nisbati  $eG'm$ , katod trubkasi qanday gaz bilan to'ldirilganidan va qanday elektrodlar ishlatilishidan qat'iy nazar, bir xil qiymatga ega ( $-1.76 \cdot 10^{11} \text{Kl.kg}^{-1}$ ) ekanligini aniqladi va Tomson manfiy zaryadlangan zarrachalar har qanday moddada bor degan xulosa chiqardi va bu zarralar elektron (Grekchadan yantar-qahrabo) deb atadi. Elektr tokini xuddi shu zarrachalarning xarakati natijasida paydo bo'lishi xam aniqlandi.

Tomson asbobining  $eG'm$  nisbatini aniq topish uchun mukammallashtirilishi mass-spektrometr asbobining yaratilishiga olib keldi. Bu asbobda ionlar  $eG'm$  nisbatga qarab bir-biridan ajratiladi.

Elektronning elektr zaryadining qiymatini amerikalik fizik Milliken topgan (1909-1917 yillardagi tajribalar asosida). ( $1.6 \cdot 10^{-19} \text{Kl.}$ ) Bu zaryadni elementar zaryad birligi deb ataladi. Elektron zaryadini va Tomson topgan  $eG'm$  nisbatni bilgan xolda elektronning massasini aniqlash mumkin.  $9.11 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$  yoki vodorod atomi massasining  $1G'1849$  qismini tashkil qiladi.

**Rentgen nurlari** 1895 yil Rentgen katod nurlarini o'rganayotganda yana qandaydir nurlanish turi borligini tasodifan sezib qoldi. Bu nurlar jismlardan o'tish qobiliyatiga ega edi. Bu nurlarni Rentgen X –nurlar deb atadi. Keyinchalik Rentgen tajribalar asosida rentgen nurlarining xosil bo'lish sharoitlarini aniqladi: bu nurlar uchib borayotgan elektronlar katod trubkasining devoriga urilgan va buning natijasida ushlanib qolgan joyda paydo bo'lar ekan. Bu xususiyat aniqlangandan so'ng Rentgen shunday trubka yaratdiki, unda rentgen nurlarini xosil qilish juda xam qulay bo'ladi. Bu trubkalar xozir xam shunday ko'rinishga egadir.

Trubka ichida mavjud bo'lgan musbat ionlar anod bilan katod orasidagi kuchlanish yordamida xarakatga keltiriladi va tezlashgan musbat ionlar katodga urilib, undan elektronlarni urib chiqaradi. Katoddan urib chiqarilgan elektronlar xam mavjud elektr maydonda tezlanib, intensiv katod nurlarni xosil qiladi.

Katod nurlarining katod sirtiga perpendikulyar yo'nalishda uchib chiqish xususiyatini xisobga olib, Rentgen katodga egri formani beradi. Egri formadagi katod elektronlar oqimini kichik bir nuqtaga yig'ishga qodir bo'ldi. Mana shu elektronlar oqimi yo'nalgan joyga maxsus to'siq joylashtiriladi (antikatod AK). Bu antikatodga elektronlar urilib, ushlanadi va rentgen nurlarini paydo qiladi.

Shunday qilib, rentgen nurlarining paydo bo'lish joyi antikatodning sirtidir, u yuqori temperateraga chidamli materialdan qilinadi, chunki antikatodning elektronlar intensiv ravishda bombardirovka qilganda temperatura juda katta bo'lishi mumkin.

Xozirgi zamon trubkalarida qizdiriluvchi katod ishlatiladi. Bunday katoddan uchib chiqqan elektronlarning intensiv oqimi elektr kuchlanish yordamida tezlatiladi. Bu usulda rentgen trubkasida yuqori vakuum kerak, chunki elektronlar antikatodsha xech qanday to'sqinliksiz etib borishi kerak.


Sovuq katodli trubkalarda musbat ionlar katoddan elektronlarni urib chiqarish uchun etarli darajada kuchlanish berilishi kerak. Lekin bu berilgan kuchlanish elektronlarni xam tezlashtiradi. Shuning uchun bu trubkalarda biz elektronlarning tezligini xoxlagan chegarada o'zgartira olmaymiz.

Qizdiriluvchi katod trubkalarda ionli bombardirovka ortiqcha va xatto zararlidir. Shuning uchun qizdiriluvchi katod trubkalarida yuqori vakuumga erishish kerak. Bunday trubkalarda xoxlagan kuchlanishlarni ishlatish mumkin va keng chegarada elektronlarning tezligini o'zgartirishimiz mumkin, bu esa xosil bo'luvchi rentgen nurlarining moddadan o'tish qobiliyatini xam xoxlagancha o'zgartirish imkoniyatini yaratadi.

### ***Rentgen nurlarining kelib chiqishi va tabiati***

Rentgen nurlarining xosil qilish usuli shuni ko'rsatib turibdiki, ularning xosil bo'lish tez uchuvchi elektronlarning to'htatilishi bilan bog'liqdir. Uchuvchi elektron elektron elektr va magnit maydonlari bilan o'ralgan, chunki xarakatlanayotgan elektr tokni xosil qiladi. Elektronning to'xtilishi yoki sekinlashtirilishi uning atrofidagi magnit maydonning o'zgarishiga olib keladi. Magnit yoki elektr maydonning o'zgarishi esa, ma'lumki elektromagnit to'lqinlar nurlanishini keltirib chiqaradi. Bu elektromagnit to'lqinlar rentgen nurlari ko'rinishida kuzatiladi.

Rentgen nurlarining to'lqin tabiatiga ega ekanligini aniqlash uchun ularning interferentsiya yoki difraktsiya xossalari tekshrish kerak edi. Bunday tajribani o'tkazish juda og'ir masala edi va bu masalani faqatgina 1912 yil M. Laue difraktsion panjara sifatida tabiiy kristallni ishlatib (tabiiy kristallda atomlar to'g'ri tartibda va kichik masofalarda (bir necha  $A^0$ ) joylashgan bo'lib, rentgen nurlari to'lqin uzunligi bilan solishtirarlidir) xal qildi. Laue tomonidan rentgen nurlarining difraktsiyasi xosil qilinganidan so'ng, bu nurlarning to'lqin tabiati to'g'ridan – to'g'ri isbot qilinda va xattoki kristallarning tuzilishini o'rganish xam mumkin ekanligi ko'rsatildi. (rentgenostruktur analiz metodi). Keyinchalik rentgen nurlarining to'lqin uzunligi xam aniqlandi. Oddiy rentgen trubkasining nurlanish oq yorug'lik nuriga o'xshash bo'lib, xar xil to'lqin uzunligidagi nurlarni tashkil qilishi aniqlandi ( $A^0$  dan kichik to'lqin uzunligiklaridan to bir necha  $A^0$  gacha bo'lgan).



**8-rasm. Rentgen trubkasining nurlanish oq yorug'lik nuriga o'xshash, xar xil to'liq uzunligidagi nurlari.**

Keyinchalik  $1/100$  va  $1/1000 A^0$  to'liq uzunligiga ega bo'lgan nurlar xam xosil qilindi. Rentgen nurlarining to'liq uzunligi kamayishi bilan uning yutilish qobiliyati xam kamayishi aniqlandi. Bunday nurlar qattiq nurlar deb ataldi.

***Radioaktivlik. Radioaktiv nurlarning tabiati***

Radioaktivlik birinchi bo'lib, Anri Bekkerel tomonidan 1896 yil uran tuzlarida tasodifan aniqlandi. Radioaktivlik rentgen nurlarining ochilishidan keyin ochilgan. Radioaktivlik xodisasini ochishda xam, xuddi elektronlarni va rentgen nurlarini ochilishi kabi katod nurlari sabab bo'ldi. Bekkerelning o'ylashicha nurlarning paydo bo'lishi lyumiestsentsiya maxsulotidir va xar qanday lyumiestsentsiyaga xamroxdir, masalan yorug'lik nurlari yordamida xosil qilingan. Shuning uchun lyumiestsentsiyalanuvchi moddalarni yorug'lik nuri bilan nurlatib, qora qog'ozga o'ralgan fotoplastinkani qoraytirdi. Radioaktivlik molekulyar xodisa bo'lmasdan, radioaktiv elementlar atomlarining ichki xossasidir. (Per Kyuri, Mariya Kyuri).

**$\alpha$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$  - nurlar.**

Magnit maydonda radioaktiv nurlar 3 ga ajraladi, ulardan 2 tasi ( $\alpha$  va  $\beta$ ) qarama-qarshi tomonga og'adi va 1 tasi ( $\gamma$ ) og'ish xususiyatiga ega emas.

$\alpha$  - nurlar, yoki


$\alpha$  - zarralar - musbat

$\beta$  - nurlar - manfiy

$\alpha$  - nurlarni magnit maydoni kam og'diradi;


$\beta$  - nurlar ko'proq og'adi

$\alpha$ ,  $\beta$  va  $\gamma$  - nurlarning yutilish qobiliyati xar xildir  $\alpha$  - nurlar qog'oz varag'i bilan to'la yutiladi.



9- rasm.  $\alpha$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$  - nurlarning magnit maydonidagi og'ishi.

$\beta$  – nurlar bir necha millimetr bo'lgan  $Al$  da to'la yutiladi,  $\gamma$  - nurlar esa 1 sm bo'lgan  $Al$  dan o'tib ketadi. 1 sm qo'rg'oshin esa  $\gamma$  -nurlarni 2 marta kuchsizlantiradi.



10- rasm.  $\alpha$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$  - nurlarning to'siqdan o'tishi.

**$\gamma$ -nurlar.** O'z xossalari jixatidan  $\gamma$  - nurlar rentgen nurlariga o'xshashdir: havoni ionlantiradi, fotoplstinkani qoraytiradi va magnit maydonida og'maydi. Kristalldan o'tayotganda  $\gamma$  nurlar xuddi rentgen nurlari kabi, defraktsiyaga uchraydi. Bir xil qattiq rentgen nurlari  $\gamma$  - nurlaridek moddadan o'tish qobiliyatiga egadir (ulardan qolishmaydi).

Rentgen nurlarining va  $\gamma$  - nurlarning xamma xossalari bir xil bo'lganligi ular bir xil tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi. Rentgen nurlari kichik to'lqin uzunligiga ega bo'lgan elektromagnit nurlanish ekanligini bilamiz. Shuning uchun  $\gamma$  - nurlar xam elektromagnit to'lqinlar (undan xam kichik to'lqin uzunligiga ega bo'lgan). Tarqalish tezligi, xamma elektromagnit nurlanish kabi, yorug'lik tezligiga teng 300000 kmG'sek. Rentgen nurlari va  $\gamma$  - nurlar (bir xil to'lqin uzunligiga ega bo'lsa) olinish usulidan tashqari bir-biridan xech qanday farq qilmaydi.

**$\alpha$  va  $\beta$  - nurlar.**  $\alpha$  - nurlar 2 elementar zaryadga teng bo'lgan musbat zaryadga egadir.



$\beta$  – nurlar manfiy 1 elementar zaryadga ega.

$\beta$  – zarraning massasi elektronning massasi bilan bir xildir.  $\beta$  – zarrachaning zaryadi xam elektronning zaryadi bilan tengdir. Shuning uchun,  $\beta$  – zarrachalar tez harakatlanuvchi elektronlardir (radioaktiv modda atomidan uchib chiqayotgan).  $\beta$  – zarralarning tezligi yorug'lik tezligining 99% ni tashkil qiladi.

$\alpha$  - zarrachalarning massasi 4 aem ga teng. 4 aem ga teng massaga va 2 elementar zaryadga Ne ning atom yadrosi egadir.


### **Radioaktiv parchalanish**

$\beta$  – elektron yadrodan 1 ta manfiy zaryad olib chiqib ketadi, shuning uchun yadroning massa sonini o'zgartirmaydi. Shuning uchun  $\beta$  – parchalanishi natijasida massa soni o'zgarmasdan tarkib soni birga o'zgaradi:



**11-rasm. Radioaktiv parchalanish.**

$\alpha$  - zarra yadrodan chiqib ketish natijasida radioaktiv atom o'zidan tartib nomeri 2 ga kichik bo'lgan va massasi 4 ga kichik bo'lgan atomga aylanadi.



**12-rasm. Alyuminiy yadrosidan fosfor izotopining xosil bo'lishi.**

### *Ultrabinafsha halokat*

Temir parchasini qizg'ish rang olguncha qizdirib, ularning nurlanishini tushuntirishga harakat qilinganda klassik fizika fiziklarga katta kutilmagan sovg'a taqdim etdi. Ma'lumki, qattiq jismlar qattiq qizdirilgan holatda nur chiqarish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Mukammal yutish va nurlanish xossalari ega bulgan jism chiqargan ideal nurlanish mutlaqo qora jism nurlanishi deyiladi.

Mo'tadil qizdirilgan (a) jismning nurlanishi chastotalarning asosan qizil va infraqizil sohasiga to'g'ri kelgani uchun, jismning nurlanishi qizilga o'xshaydi.

Temperatura ko'tarilgan sari nurlanish intensivligining maksimum katta chastotalar tomon siljiydi va shu sababli nurlanish navbatma-navbat olov rang, sariq va nihoyat, spektrning hamma sohasida etarli darajada energiya nurlanayotgan bo'lsa, oq bo'lib ko'rinadi.

Klassik fizika bu xodisani tushuntira olmadi, chunki uning qonunlari bo'yicha nurlanish intensivligi chastota ortishi bilan uzluksiz ravishda ortib borishi lozim. Tajriba ko'rsatishicha, nurlanish intensivligi, chastota ortishi bilan maksimum qiymatdan o'tyapti. Klassik fizika qonunlari bo'yicha nurlanish spektrlarida ko'k va ultrabinafsha nurlar tajribada kuzatilganga nisbatan ko'proq bo'lishi kerak edi. (max nuqtadan so'ng kamaymasdan, balki ortib borishi kerak edi) va ko'zga hamma qizdirilgan jismlar ko'k bo'lib ko'rinishi kerak edi.

Nazariyaning tajribada kuzatilayotgan dalillarga to'la qarshi kelishi shu zamon fiziklari orasida ultrabinafsha halokat degan nom oldi.

### *Mutlaqo qora jismning nurlanishi*

Mutlaqo qora jism deb shunday bir ob'ektga aytiladiki, u xamma chastotalardagi elektromagnit nurlanishlarni bir xil extimollik bilan chiqaradi yoki yutadi. Yopiq pechkanin kichik bir teshikchasidan (tirqishidan) chiqayotgan nurlanishni o'rganganda bunday pechka juda qattiq qizdirilgan bo'lsa, mutlaqo qora jismga misol bo'la oladi.



Mutlaqo qora jismning nurlanishi energiyasining zichligi ayni bir temperaturada to'liq uzunligi yoki chastotaga bog'liqligini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar pirovard natijada energiyaning kvantlanishini tan olishga olib keladi.

Energiyaning to'la zichligi  $\rho = 4/C E$  ga teng, bu erda  $S$  – yorug'lik tezligi,  $E$  – energiya (nur sochishning to'liq quvvati).

Chastotalar intervalidagi energiyaning zichligi  $\rho_v$ ;  $\rho_v = 4\pi/C Bv$  ga teng.  $Bv$  – (energiya) mutlaqor qora jismning sirtiga perpendikulyar bo'lgan vaqt birligida chastotaga teng bo'lgan chastotalar intervalida nur sochishning quvvati.  $E$ ,  $Bv$ ,  $\rho$  va  $\rho_v$  kattaliklar temperatura funktsiyasidir.

XIX asrning oxirida ko'p olimlar tajribada olingan bu egri chiziqlarni, ya'ni energiya zichligining taqsimlanish egri chiziqlarini, nazariy tushuntirishga harakat qildilar. 1-bo'lib Stefan-Boltsman qonunining o'rganilishi bo'ldi. Bu qonunni 1879 yilda Stefan taklif qildi va 1884 yilda Boltsman keltirib chiqardi:  $E = \sigma T^4$ . Stefan-Boltsman qonuniga chastota kirmaganligi sababli, bu qonundan foydalanib faqat intensivligi taqsimlanishi egri chizig'i tagidagi yuzani aniqlashimiz mumkin bo'libb ularning formasini aniqlay olmaymiz. Bu kamchilik 1896 yil Vin tomonidan taklif qilingan qonun orqali qisman yo'qotildi:

$$\rho_v = \alpha v^3 \exp(-\beta v/T)$$

$\alpha$  va  $\beta$  - empirik doimiylar.

Vinning siljish qonuni yuqorida aytganimizdek yuqori chastotalarda tajriba bilan mos keladi.

Reley Vinning siljish qonuni keltirib chiqarilayotganda qilingan ayrim xatolarga e'tibor berdi. Bu xatolarni tuzatish va keyinchalik Jins tomonidan Reley olgan natijalariga tuzatishlar kiritishi quyidagi natijaga olib keldi:  $\rho_v = 8\pi v^2 kT/C^3$

$k$  – Boltsman doimiysi. Reley-Jins qonuni quyi chastotalarda tajriba bilan muvofiq keladi.

1900 yilda Maks Plank tajribada olingan energiya taqsimlanishi egri chiziqlarni to'la koniktiruvchi tenglamani keltirib chiqaradi:

$$\rho_v = 8\pi v^2 kT/C^3 (h/\exp(hv^2kT) - 1)$$

Bu tenglama Vin va Reley – Jins tenglamalaridan foydalanib keltirib chiqarilgan, chunki Plank yuqori va quyi chastotalarda energiya taqsimlanish egri chiziqlarining ko'rinishini bilgan edi va Plankning vazifasi egri chiziqni hammasi to'g'ri aks ettiruvchi tenglamani chiqarish edi. Plank doimiysi aniqlangandan so'ng ( $h \approx 6.55 \cdot 10^{-27}$  – Plank topgan son xozirgi  $h \approx 6.626196 \cdot 10^{-27}$  egr.s ga juda xam yaqindir) yuqoridagi tenglama tajribada olingan egri chiziqni to'la izoxlab berdi. Lekin eng asosiy xulosa tenglamani o'zini keltirib chiqarish emas, balki bu tenglamani keltirib chiqarish chastotaning uzluksiz o'zgaruvchi kattalik bo'lishini xulosa qilishni talab qilgandadir. Lekin chastotaning Plank doimiysi bilan ko'paytmasi  $hv$  bizga energiya birligini beradi, bu esa o'z navbatida energiya xam uzlukli (diskret) kvantlangan kattalik bo'lishini taqozo etadi.

Lekin Plank o'zining qilgan ishini oxirigicha tushunib etmagan edi. Boshqa olimlar xam ko'p yillar davomida energiyaning kvantlangan bo'lishining fizik ma'nosi yo'q deb, bu faqatgina masalani xal etishdagi sun'iy matematik usul deb

bilganlar. Lekin Eynshteynning 1905 yildagi fotoelektrik effekt va Debay bilan qilingan qattiq jismlarning issiqlik sig'implari bo'yicha qilgan ishlari bunday fikrlar asossiz ekanligini isbotladi. Mutlaqo qora jismning nurlanishiga umuman bog'liq bo'lmagan xatto bir-biri bilan xam bog'liq bo'lmagan bu xodisalarni tushuntirishda energiyaning kvantlanishi asosida ishlab chiqilgan nazariyalar taklif qilindi.

Agar mutlaqo qora jismda energiya taqsimlanishining egri chizig'ini Plank chastotalar uchun xoxlagan sonlarni qo'yib to'g'irlab qo'ygan va bunday to'g'irlash fizik ma'noga ega bo'lmasdan sun'iy matematik usul deb hisoblashga xuquqimiz bo'lsa, 3 ta bir-biriga bog'lanmagan xodisalarni nazariy tushuntirish uchun energiyaning kvantlanishining talab qilinishi albatta bunda fizik ma'no borligin taqozo etadi. Xozirgi zamon fanida energiyaning kvantlanganligi va Eqhv ga tengligi xech qanday shubxa tug'dirmaydi.

Kvant nazariyasiga ko'ra, nur energiyasi moddalar tomonidan uzluksiz emas, balki ma'lum ulushlar (portsiyalar) xolida yutiladi va chiqariladi.

Nurning yutiladiga eng kichik ulushi:  $\epsilon q hv$  bo'lib, bu miqdor energiya kvanti deyiladi. Yutilgan yoki chiqarilgan nur energiyasining umumiy miqdori:  $E_{qneqnhv}$  bo'ladi, bu erda  $nq1,2,3..$ ;  $v$  – to'lqin chastotasi;  $h$  – Plank doimiysi.

#### **Muxokama uchun savollar:**

1. Kvant mexanikaning klassik mexanika bilan umumiyligi va farqi nimada?
2. Kvant kimyo fani nimani o'rganadi?
3. Katod nurlari qanday paydo bo'ladi?
- 4 Elektron qanday ochilgan?
5. Rentgen qanday tabiatga ega?
6. Rabioaktivlik nima va uning tabiati qanday?
7. Mutlaqo qora jism tushunchasi nima?
8. Vin, Stefan va Reley-Jins qonunlari.

## 2-mavzu: MIKROZARRACHALARNING DUALISTIK TABIATI

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** Fotoeffekt, Kompton effekti, elektron spini,

### REJA:

1. Fotoeffekt va uning qonuniyatlari..
2. Kompton effekti.
3. Shtern va Gerlax tajribalari.
4. Elektron spini.

**Fotoeffekt va uning qonuniyatlari** Klassik mexanika muvofiq nur energiyasi uzluksiz ravishda tarqaladi va jismlar uni istalgan ulushda yutadi va chiqaradi deb hisoblanar edi. Ammo qizdirilgan jismlarning, xususan, “mutlaqo qora jismning” nurlanishi va uning ravshanligini chastotalar bo'yicha taqsimlanishiga aloqador bo'lgan tajribaviy natijalar shunga shubxa tug'diradi. Jism nurni qancha kam qaytarsa, u shuncha qoraroq ko'rinadi. Tushgan nurni qaytarmasdan, to'la yutib qoladigan jism bizga mutlaqo qora ko'rinadi. Ichi bo'sh va birgina tirkichga ega bo'lgan idish ana shunday mutlaqo “qora” jismga misol bo'la oladi. Bu teshikdan idish ichiga kirgan nurlar uning ichki devorlariga urilib, shu erda qoladi, ya'ni “mutlaqo qora jism” ideal yutuvchi sistemadir, shu bilan birga u ideal nurlanuvchi jism xam bo'la oladi. Ma'lum temperaturagacha qizdirilgan jism ichida “mutlaqo qora jism” eng ko'p nur tarqatadi. Nurlanish jismning qanday materialdan yasalganligiga bog'liq bo'lmasdan, faqat temperaturagagina bog'liqdir. Bu xol Stefan – Boltsmanning tajribaviy yo'l bilan kashf qilingan qonuniga ko'ra quyidagicha ta'riflanadi: mutlaqo qora jism nurlanishning to'liq energiyasi absolyut temperaturaga ko'tarilgan sari uning 4-darajasiga proportsional ravishda osha boradi, ya'ni

$$E = kT^4$$


Bu birinchi xususiyat. Ikkinchi xususiyat Vin tomonidan topilgan bo'lib, u Vinning siljish qonuni deb ataladi.

$$T\lambda_{\max} = const .$$

Vinning siljish qonuni  $T\lambda_{\max} = const$  yuqori chastotalarda, ya'ni kichik to'lqin uzunliklarida, tajribada topilgan ma'lumotlar bilan a'lo darajada mos keladi va elektromagnit spektrning qarama-qarshi tomonida tajriba bilan bunday mos kelish kuzatilmaydi.

Fotoeffekt hodisasi 1887 yil Gerts tomonidan kashf qilingan va Stoletov chuqur o'rgangan; yorug'lik ta'sirida metallar sirtidan (yoki yarim o'tkazgichlar) elektron uchib chiqadi. (Fotoeffekt fotoelementlarda ishlatiladi. Bunday fotoelementlar bilan metro stantsiyalariga kirishda ishlatiladigan avtomatlar jihozlangan ular fototonning o'zgarishi natijasida ishlab ketadi). Fotoelektrik effektning eng muxim tomoni shu bo'ladiki, har bir metall uchun yorug'lik shunday bir to'lqin uzunligi (minimal chastota) borki, bu to'lqin uzunligidan

kattaroq (yoki bu chastotadan kichikroq) yorug'lik to'lqinlari metallga ta'sir etganda, ularning intensivligi xar qanday katta (kuchli) bo'lishidan qat'iy nazar, metalldan elektronlar ajralib chiqish hodisasi kuzatilmaydi. Nima uchun eng kuchli intensivlikka ega bo'lgan ko'k yorug'lik nurlarining dastasi elektronlarni oson urib chiqishini klassik fizika asosida tushuntirib bo'lmay qoldi.



**13-rasm. Yorug'lik nuri nima? Zarrachami yoki to'lqin?**

Bu xodisani Eynshteyn 1905 yili Plankning kvantlar gipotezasi asosida mukammal ravishda tushuntirib berdi. Metallarning sirtiga tushayotgan ko'k yorug'lik kvantining energiyasi qizil yorug'lik kvanti energiyasidan kattaroq bo'lishi kerak. Bu yorug'liklarni quyidagicha tasavvur qilishimiz mumkin: quyi chastotaga (yuqori to'lqinuzunligiga) ega bo'lgan qizil yorug'likni tennis shartlariga o'xshatsak, ko'k yorug'lik (yuqori chastotali-to'lqin uzunligi kichik) ni xuddi shu tezlikda uchuvchi po'latdan qilingan sharlar deyishimiz mumkin. Qizil yorug'likning xar bir kvantining energiyasi metallga juda kam ta'sir qiladi va elektronni metallan urib chiqara olmaydi (tennis sharlarining oqimi bajarmagan ishni 1 dona uchib kelayotgan po'lat shar bajaradi).




**14-rasm. Zarrachalar to'lqining ko'rinishi.**

1905 yilda Eynshteyn Plankning nur kvantlari g'oyasini yanada rivojlantirib kvantlanish xususiyati umuman yorug'likka tegishli degan fikrni ilgari surdi. Eynshteyn nazariyasiga ko'ra yorug'lik energiyasi  $h\nu$  kvantlardan fotonlardan iboratdir va shu fotonlar tarzida mavjuddir.

Fotonlar (kvantlar  $h\nu$ ) g'oyasining to'g'riligi 20-asr boshlarida yorug'likka tegishli bo'lgan va klassik to'lqin nazariyasi asosida tushuntirib bo'lmaydigan bir qator tajribalar natijalarini to'g'ri tushuntira olganligi bilan isbotlanadi. Masalan Eynshteyn fotoeffekt xodisasini nur energiyasini uning korpuskulyar tabiatini aks ettiruvchi paketning energiyasiga uning aylanishi bilan bog'liqligini ko'rsatdi (rasm) Yuqori vakuum sharoitida bo'lgan A va B metall plastinkalar orasida potentsiallar farqi mavjud bo'lsin. Muhit vakuumdan iborat bo'lgani uchun zanjir uzuq, unda tok yo'q.

#### Fotoeffekt tajribasining sxemasi:



**A** – kollektor  
**B** – emitter  
**G** – galvonometr  
**V** – voltmetr  
**S** – intensivligi va to'liq uzunligi o'zgarmas yorug'lik manbai

Agar ichki sirtiga yorug'lik nuri tushirsak, zanjirda tok paydo bo'lganligini galvonometr **G** ko'rsatadi. Zanjirdagi tokning yo'nalishi plastinkadan ajralib chiqayotgan elektr zaryadlarni manfiy ishoraga ega ekanligini ko'rsatadi. Haqiqatdan xam bular elektronlar edi. Yorug'lik ta'sirida moddadan elektronlarning chiqish hodisasiga fotoeffekt deyiladi. Uni mukammal o'rganish (Stoletov) natijasida quyidagi qonuniyatlar aniqlanadi.

1. Katod monoxromatik nur bilan yoritilgan to'yinish toki, ya'ni ajralib chiqayotgan elektronlarning maksimal soni katodga tushayotgan yorug'likning avshanligiga proporsional.
2. Katodda ajralib chiqayotgan elektronlarning tezligi unga tushayotgan yorug'likning chastotasi ortishi bilan ortadi ammo yorug'lik ravshanligiga bog'liq emas.
3. Xar bir modda uchun mutlaqo aniq maksimal to'lqin uzunligi mavjudki, bu to'lqin uzunlikda fotoeffekt xodisasini hali kuzatsa bo'ladi.
4. Fotoeffekt yorug'lik tushirilgan ondayoq boshlanadi.

Ta'kidlab o'tamizki, fotoeffekt xodisasining Maksvellning elektrodinamika hodisasi asosida izohlab bo'lmadi. Ularga binoan yorug'lik fazoda uzluksiz tarqalgan elektromagnit to'lqinidan iborat bo'lganligidan fotoelektronlar energiyasi nima uchun faqat kichik to'lqin uzunligidagi yorug'likgina elektronlarni uzib chiqaradi degan masalani tushunish mumkin bo'lmadi. Fotoeffektning sababini

Eynshteyn Plankning yorug'lik uzlukli ravishda portsiya – portsiya bo'lib chiqadi degan g'oyasini yanada rivojlantirish asosida izohlab berdi. Yorug'lik energiyasining portsiyasi  $h\nu$  o'z individualligini tarqalish jarayonida xam saqlab qoladi (yutilish va chiqarish jarayonlaridan tashqari). Yorug'lik enegiyasi  $h\nu$  ga teng bo'lgan yorug'lik tezligida xarakat qiluvchi kvantlardan fotonlardan iboratdir va u shu fotonlar tarzida tarqaladi, yutiladi, ya'ni fotonlar tarzida mavjuddir. Portsiyaning bo'laklarga ajralishi mumkin emas, u butunligicha yutilishi mumkin. Yorug'lik portsiyasining energiyasi  $E$  metalldan elektronni uzib chiqarishga va unga kinetik energiya berishga sarflanadi.

$$h\nu = A + \frac{mv^2}{2} \quad \text{bundan} \quad v = \sqrt{\frac{2(h\nu - A)}{m}}$$

Bu erda  $m$ - elektronning massasi:

$V$  – metalldan uzilib chiqayotgan elektronning tezligi.

Eynshteyn fikriga ko'ra, yorug'likning intensivligi yorug'lik oqimidagi kvantlar soniga proporsional, shuning uchun u metalldan uzilib chiquvchi elektronlar sonini belgilaydi. Yuqoridagi tenglamaga muvofiq, elektronlar tezligi ularning atomdan chiqishiga va yorug'lik chastotasiga bog'liq bo'lib, yorug'likning ravshanligiga bog'liq bo'lmaydi. Chiqish ishi esa metallning turiga va metall sirtining xolatiga bog'liq bo'ladi. Eynshteyn tenglamasidan foydalanib Plank doimiysini topish mumkin.  $V > 0$  bo'lgan hol uchun  $A < h\nu_{\min}$  va  $h\nu_{\min} < A$  :  $v_{\min}$  fotoeffektni ta'minlovchi chastota. Plank doimiysini o'zaro bog'liq bo'lmagan har xil yo'l bilan topilgan qiymatlarining bir xil chiqishi moddaning yorug'likni uzlukli ravishda chiqarishi va yutishi haqidagi fikrning to'g'ri ekanligini tasdiqladi.


**Kompton effekti** Eynshteyn fotonlar nazariyasi 1924 yilda yana bir tasdiqdan o'tdi. Bu hodisa Kompton effekti deb nom oldi. Bu hodisada fotonlar elektronlar bilan o'zaro ta'sir etib, o'z energiyasining bir qismini elektronlarga uzatadi, buning natijasida fotonning to'lqin uzunligi ortadi va nurlanishning tarqalish yo'nalishi o'zgaradi – nurlanishning sochilishi ro'y beradi.

Bu effekt 1923 yilda amerikalik olim Kompton tomonidan ochilgan.

1912 yilda Laue tomonidan (Maks Laue 1879-1960)-nemets fizigi rentgen nurlarining difraktsiyalanishi bo'yicha olingan natijalar ular elektromagnit to'lqinlaridan iborat ekanligini ko'rsatgan edi. Rentgen nurlarining modda tomonidan sochilishini o'rganish natijasida amerika fizigi Kompton muhim hodisani kashf qildi. Kompton effekti shundan iboratki, rentgen nurlari engil atomlar tomonidan sochilganda ularning to'lqin uzunliklari o'zgaradi.

Klassik elektrodinamikaga binoan rentgen nurlarining sochilishi atomdagi elektronlarning majburiy tebranishining natijasi bo'lib, bu xolda sochilgan nurning chastotasi tushayotgan yorug'liknikiga teng bo'lishi kerak. Kompton o'tkazgan aniq o'lchashlar shuni ko'rsatadiki, sochilgan rentgen nurlari orasida to'lqin uzunligi kattaroq bo'lgan nurlar xam bo'lar ekan, ya'ni birlamchi dasta tarkibida to'lqin uzunligi  $\lambda$  ga teng bo'lgan monoxromatik rentgen nurlarigina bo'lgan xolda, sochilgan nurlar tarkibida to'lqin uzunligi  $\lambda$  bo'lganlari bilan bir qatorda undan kattaroq bo'lgan nurlar xam bo'lar ekan. Kompton tajribasining sxemasi rasmda ko'rsatilgan. Rentgen nurlarining  $D_1$  va  $D_2$  difragmalar yordamida

ajratilgan ingichka dastasining atomlari engil bo'lgan modda (o'mir, parafin va boshqalar) sochib yuboradi. Sochilgan nurlanish spektrograf yordamida o'rganiladi.



**15- rasm. Kompton tajribasining sxemasi**

T – rentgen trubkasi; F – filtr; S – sochuvchi jism; D – spektrometr; P – plastinka; K – kristall;

Spektrometr tajriba vaqtida tebranuvchi K –kristalldan va fotoplastinka P dan tashkil topgan asosiy qismga ega. Rentgen nurlarining ingichka dastasi fotoplastinka oldiga o'rnatilgan kristall orqali o'tkazilgandi, to'g'ri chiziq bo'yicha tarqalgan nurlardan xosil bo'lgan katta markaziy dog' atrofida muntazam ravishda joylashgan kichikroq dog'lar xam xosil qiladi. Bu kichik dog'lar dog'larning paydo bo'lishini rentgen nurlari kristallning tartibli strukturasi difraktsiyalanishi natijasidir deb izohlash mumkin bo'ldi.

To'lqin uzunligining kuzatiluvchi  $\Delta\lambda = \lambda' - \lambda$  o'zgarishi sochuvchi jismning materialiga bog'liq emas, ammo sochilish yo'nalishiga bog'liq. Agar sochuvchi moddaga tushuvchi dastaning yo'nalishi bilan sochilgan yorug'lik yo'nalishi orasidagi burchakni  $\theta$  deb belgilasak, to'lqin uzunlik o'zgarishining burchakka bog'lanishini quyidagicha ifodalash mumkin:  $\Delta\lambda = 2K \sin^2 \theta / 2$  bu erda  $K = 0,0241 \text{ \AA}$  tajribaviy yo'l bilan topilgan doimiylik bo'lib, nur to'g'ri burchak ostida sochilgan vaqtida to'lqin uzunligi o'zgarishining kattaligi  $\Delta\lambda$  ni ko'rsatadi. Agar kompton hodisasini rentgen fotonlarining modda atomlari bilan to'qnashish jarayoni deb qaralsa, uning yuqoridagi qayd qilib o'tilgan xususiyatlarining barchasini tushuntirish mumkin. Fotonlar erkin elektronlar bilan to'qnashganda ularning chastotasi o'zgargan xolda sochilishi kuzatiladi, fotonlar bilan to'qnashgan elektronlar esa impuls va energiya oladi va natijada ular ma'lum yo'nalishda xarakatlana boshlaydilar. Bu xolda energiya va impuls saqlanadi:

$$h\nu = h\nu' + \frac{mv^2}{2} \quad \text{Bu erda } h\nu - \text{ tushayotgan fotonning energiyasi,}$$

$h\nu'$  - sochilgan fotonning energiyasi,

$v$  – elektronning to'qnashuvdan keyingi tezligi.

Nazariya bilan tajriba natijalarining mos kelishi rentgen nurining sochilishi kvant xodisasi ekanligini ko'rsatadi. Mazkur nazariyaga binoan xar bir elektron butun kvantni sochadi. Nazariyani tasdiqlovchi tajriba natijalari ko'rsatadiki, fotonlar faqat energiyagagina ega bo'lmasdan, impulsga xam ega. Kristall spektrometr yordamida tipik to'lqin xususiyat – to'lqin uzunligi o'lchangan.

Shunday qilib, o'tkazilgan tajriba yorug'likning xam to'lqin, xam korpuskulyar xossaga ega ekanligini birinchi bor yaqqol namoyon bo'ldi. Bu xol fanda yorug'lik dualizmi deb ataladi, ya'ni yorug'lik real fizikaviy ob'ekt bo'lib, oddiy ma'noda na to'lqin ko'rinishiga, na zarra ko'rinishiga ega. Umuman, to'lqin va zarra bir fizikaviy moxiyatning ikki shaklidir.

Agarda klassik fizika to'g'ri bo'lsa (mikrosistemalar uchun) atomning o'rtacha tebranish energiyasi (tebranish fazoviy bo'lmaganda) teng taqsimlanish printsiptiga asosan  $kT$  ga teng bo'lishi kerak. Har bir atom (masalan metalltdagi  $N$  atomlardan biri) 3 yo'nalishda tebrangani uchun metallning to'la energiyasi  $3N kT$  q ga teng bo'ladi, ( $Nk q R$  ga teng)  $q3RT$ .

Issiqlik sig'imi (masalan, molyar issiqlik sig'imi 1 mol moddani  $1^0$  ga oshirish uchun talab qilingan issiqlik miqdori)  $S_v$  (o'zgarimas xajmdagi issiqlik sig'imi) temperatura bilan namunadagi energiyaning ortishini ko'rsatib turadi:

$$dU = C_v dT$$

Shunday qilib,  $S_v$  ni xisoblab topish uchun  $dU/dT$  xisoblash kerak. Molyar ichki energiya  $U_m q3RT$  deb oldik, shuning uchun klassik fizika  $C_{v,m} q3R$  ekanligini va issiqlik sig'imining temperauraga bog'liq emasligini oldindan ko'rsatib turadi. Bu natija Dyulong va Pti qonun sifatida bizga ma'lum, u tajribaviy natijalar asosida taklif qilingan.

Eynshteyn Dyulong va Pti qonunlarini past temperaturada tekshirib ko'rdi va bu qonun temperatura pasayishi bilan tajribada olingan natijalardan farq qiluvchi natijalar berishini ko'rsatdi.

1 mol metallning to'liq energiyasi uchun Eynshteynning xisoblari quyidagi tenglamani berdi:

$$U_m = 3RT \exp(-hv/kT) / [1 - \exp(-hv/kT)]$$

Bu tenglamani Plank olgan tenglama bilan o'xshashligini aytib o'tish kerak (energiya taqsimlanishining  $v$  ga bog'liq ravishda), issiqlik sig'imini topish uchun bu tenglamani  $T$  temperatura bo'yicha differentsiallashtirish kerak:

$$C_{v,m} = 3RT (hv/kT)^2 \left\{ \exp(-hv/kT) / [1 - \exp(-hv/kT)]^2 \right\}$$

Juda yuqori temperaturada  $kT$  ning qiymatini  $hv$  ning qiymatidan ancha katta bo'ladi, shuning uchun  $\exp(-hv/kT)$  ni  $e^{-x} q1-x$   $Q \dots$  dan foydalanib ochishimiz mumkin va  $(hv/kT)$  bo'yicha 1- tartibli a'zolari qoldiramiz:

$$C_{v,m} = 3R (hv/kT)^2 \left\{ 1 - (hv/kT) + \dots / [1 - 1 + (hv/kT) + \dots]^2 \right\} = 3R,$$

bu esa klassik fizika asosida qilingan xisobga olib keladi.

Past temperaturada  $\exp(-hv/kT)$  nolga tenglashadi va shuning uchun Eynshteynning tenglamasi issiqlik sig'imining past temperaturalarda kamayishi kerakligini sifat jihatdan ko'rsatadi.

Eynshteyn va Plank nazariyalarining yutug'ining fizik sabablari bir xildir: Klassik fizikaga qarama-qarshi atom ostsillyatorlari (mikroostsillyatorlar) energiyaning faqat diskret (uzlukli) miqdorini qabul qilish mumkin. Shunday qilib, juda past temperaturalarda tebrinish uchun kerak bo'lgan energiyani xamma ostsillyatorlarni aktivlantirish uchun ichki energiya etarli darajada bo'ladi va  $3N$



tebranishlarning xammasi kuzatiladi va namunaning xossalari klassik nazariya bo'yicha berilgan issiqlik sig'imiga yaqinlashadi.

Eynshteyn modeli soddalashtirilgandir, chunki xamma atomlar qattiq moddada bir xil chastota bilan tebranadi deb qabul qilingan, aslida esa tebranish chastotalar oralig'ida bo'ladi. Bu tuzatishni Debay o'z formulasida keyinchalik hisobga olgan. Asosiy fikrimiz bo'lmasligi uchun bu masalani chuqur ko'rib o'tirmaymiz.

**Shtern va Gerlax tajribalari.** Bor postulotlari. Birgina atomning energiyasi diskret, kvantlangan qiymatlar qabul qilishi mumkin desak noto'g'ri bo'ladi. Atomning mexanik momenti (harakat miqdori momenti) xam diskret qiymatlarga ega ekanligini Shtern va Gerlaxlar tajribalarida ko'rsatgan. Shtern va Gerlax (1921) atomlarning magnit momentlarini o'lchaganlar. Bu magnit momentlar atom ichidagi oklar natijasidir, chunki bu toklar elektronlarning xarakati bilan keltirib chiqarilgan va shuning uchun atomning magnit momenti bilan aylanish impulsi orasida bog'liqlik bor. Shtern va Gerlaxlar tajribalarining mag'zi shundaki, ular atomlarning kichik tor dastasini yo'nalishi o'zgarmas, bir jinsli bo'lmagan (neodnorodnoe pole) magnit maydonida o'tkazishgan. Agar atom  $\mu$  magnit momentiga ega bo'lsa,  $H$  kuchlanganlikka ega bo'lgan magnit maydonida

$$U = -\mu H = -\mu H \cos \alpha$$

( $\alpha$  - magnit maydonning yo'nalishi bilan atom magnit momenti yo'nalishi orasidagi burchak) ga teng potentsial energiya oladi.


Bir jinsli bo'lmagan maydon tarafidan atomga ta'sir qilayotgan kuch (OZ o'q yo'nalishi bo'yicha o'zgarayotgan maydon)

$$F = -\partial U / \partial Z = \mu(\partial H / \partial Z) \cos \alpha \quad \text{ga teng.}$$

Maydon o'zgarishi (gradient) atomlar dastasiga perpendikulyar yo'naltirilgan edi, shuning uchun  $G'$  kuch atomlarning boshlang'ich xarakatidan chetlashishiga sabab bo'ladi. gar atom magnit momentining xamma orientatsiyalari (yo'nalishlari), ya'ni hohlagan  $\alpha$  burchak, mumkin bo'lganda (klassik fizika tasavvurlaridan kelib chiqqanga o'xshab), unda  $G'$  kuch

$$-\mu \partial H / \partial Z \text{ dan tortib, to } +\mu \partial H / \partial Z \text{ gacha}$$

bo'lgan hamma qiymatlarni qabul qilar edi. Har xil atomlar xar xil chetlashar edi va dastaning (tirqishdan o'tayotgan) ekrandagi ko'rinishi yoyiq bo'lar edi.



Natriy bug'lari dastasining magnit maydonida:  
a- maydon yo'q  
b - magnit maydon bor.

Amalda tirqishning 2 ta aniq tasviri ko'rinadi. (rasm)

Tajribaning bu natijasi shuni ko'rsatadiki, atom magnit momentining faqat 2 ta diskret orientatsiyasi mumkin:  $\cos \alpha = \pm 1$ . Keyingi xisoblashlar shuni ko'rsatdiki, dastalarning chetlashish kattaligiga atom magnit momenti  $\mu$  qiymatiga mos keladi:

$$\mu_B = eh/2mc = 9 \cdot 10^{-21} \text{ эрз} / \text{зс}$$

$e$  – elektron zaryadi:  $m$  – uning massasi:  $s$  – yorug'lik tezligi. Bu qiymat Bor tomonidan birinchi bo'lib xisoblangan (elementar kvant nazariyasi asosida) va Bor magnetoni deyiladi. Bor magnetonini magnit momentining kvanti desa bo'ladi.

Shtern va Gerlaxlar ochgan xodisani fazoviy kvantlanish deb atashadi, chunki magnit maydoni orientatsiyalarining magnit maydoniga nisbatan diskretligi haqida so'z yuritilyapti.

Shtern va Gerlaxlar kuzatgan atom magnit momenti elektronning orbital xarakati natijasi bo'lmasdan (eng avval shunday deb o'ylashgan), balki elektronga xos bo'lgan xususiy magnit momenti natijasidir. Bu fikr Shtern va Gerlaxlarning H va Ag larning normal xolati uchun o'tkazgan birinchi tajribalariga tegishlidir. Umumiy xolda atom magnit momenti elektronlarning orbital harakati xamda, ularning xususiy magnit momenti bilan bog'langandir.

Bu tajribalar o'tkazilgan paytlardan keyin tajribaviy dalillar (atom sistemalarining xolatlarining uzluqliligi) juda xam ko'payib ketdi.

Atom yadrosini o'rganish ayniqsa ko'p dalillar keltirdi. Atom yadrolari xam diskret pog'onalar sistemasiga ega ekanligi ko'rsatildi.

Hozirgi paytda elementar zarrachalarning rezonanslar elementar zarrachalarda xam diskret pog'onalar borligini ko'rsatadi.

**Elektron spini.** Orbital nozik tuzilishga qo'shimcha (1 kvant soni bilan tushuntiriladi) ishqoriy metallar spektri dublet tuzilishga ega ekanligi tajribada ko'rsatilgan. Avval bitta chiziq deb spektr chiziqlari asosida bir-biriga juda yaqin joylashgan 2 ta chiziqlardan iboratdir. Buni Bor – Zommerfeld modeli bilan tushuntirish mumkin emas edi. 1925 yil Yulenk va Gaudsmitlar bu xodisani elektronning orbital xarakatiga qo'shimcha o'z o'qi atrofida aylanishi bilan bog'liq bo'lgan harakat miqdori momentiga ega ekanligi bilan tushuntirdilar va bu aylanishga magnit momenti to'g'ri keladi. Bu yangi kvant soni  $m_s$  olib keladi. Spin harakat miqdori momentining kattaligi birligida  $\pm \frac{1}{2}$  ga teng. Musbat va manfiy qiymatlar uning yo'nalishi bilan bog'langan (yo'nalishning mahsuli). Spinlarning qarama-qarshi yo'nalishi bilan bog'liq bo'lgan energiyaning farqi nisbatan kichik bo'lsa xam. Dublet tuzilishni kuzatishga etarlidir.

1928 yil elektron spiniga kvantmexanik javob topilda. Shredingerning to'lqin tenglamasi norelyativistik edi. To'lqin mexanikasini nisbiylik nazariyasi bilan kelishtirish maqsadida Dirak shunday to'lqin tenglamasini keltirib chiqardiki, bu tenglama spinli elektron xarakat miqdori momentiga olib keldi. Dirak nazariyasiga binoan elektron xuddi shunday (Yulenk va Gaudsmit) xarakat miqdori momentiga va magnit momentiga ega (Yulenk va Gaudsmitning aylanayotgan elektroni kabi). Lekin, elektronning kvant mexanik xossalari matematik xisoblar asosida chiqarilgan bo'lib o'z o'qi atrofida aylanayotgan elektron nuqtai nazaridan keltirib chiqarilmagan.

Shredinger tenglamasi uch o'lchamli fazoda harakat qilayotgan elektronning xolatini yoritadi. Bunda nisbiylik nazariyasi xech xam xisobsha olinmaydi. Agar nisbiylik nazariyasi xisobga Shredinger tenglamasini Dirak tenglamasi bilan

o'zgartirishimiz kerak. Yuqorida aytganimizdek Dirak tenglamasidan elektronda xususiy impuls momenti va demak, xususiy magnit momenti (S) ni spin momenti deb atashadi (yoki spin deyiladi). (to spin inglizchadan: pryast, plesti, krutit (sya), vertet (sya)).

Spin – elektronning ichki erkinlik darajasidir, u faqat kvant xarakterga ega. Klassik mexanikaga o'tishda spin nolga aylanadi va klassik analogga ega emas

Spinni tushunarli bo'lishi uchun o'z o'qi atrofida aylanayotgan zaryadlangan sharga o'xshatishadi. Lekin shuni aytish kerakki, bu juda ham qo'pol o'xshatishdir, chunki elektron xech xam sharga o'xshamaydi.

Spin tushunchasi faqatgina relyativistik kvant nazariyasidan kelib chiqsa xam u norelyativistik kvant nazariyada xam qo'llaniladi. Bunday qo'llash iajribada olingan ko'p faktlarni to'g'ri tushuntiradi (atom spektrlarining nozik spektrlarini, Zeeman effektini va boshqalarni). Zarralarning bunday spinli nazariyasini fenomenologik yoki yarim empirik nazariya deb atashadi. Uning alohida momentlari bilan tanishamiz.

Elektron impulsi spin momenti kvadrati ( $S^2$ ) uchun va uning z o'qiga proeksiyasi z ( $S_z$ ) uchun matematik ko'rinish xuddi orbital momenti kvadrati  $M^2$  va uning proeksiyasi bilan o'xshashdir.

$$\begin{aligned} M^2 &= 1(1+1)h^2 & S^2 &= S(S+1)h^2 \\ (1 &= 0,1,2,\dots) & (S &= +1/2) \\ M_z &= mh & S_z &= m_s h \\ (m &= 0,\pm 1,\dots,\pm 1) & (m_s &= \pm 1/2) \end{aligned}$$

Lekin spin momentining kvant soni (S) orbital kavnt sonidan 1 dan farqli o'laroq faqat 1 ta S q 1/2 qiymat qabul qiladi.

$$S = \sqrt{1/2(1/2+1)h} = \sqrt{3/2}h$$

Demak, elektronning spin momenti yoki, qisqacha, uning spini ( $\sqrt{3/2}h$ ) ga tengdir. Ayrim xollarda elektron to'g'risida spin yarimga teng bo'lgan zarra haqida gapirishadi, bunda kvant soni S ning qiymatini tushunish kerak (elektronning xususiy momenti S ni emas).

Tez-tez uchrab turadigan “elektronning spini Q1G'2 yoki 1/2 ga teng bo'lishi mumkin” yoki “yuqoriga va pastga qaragan spinli elektron” kabi gaplarda alohida to'xtalamiz. Ikkala xolda xam gap elektronning spini xaqida emas (moment manfiy bo'lishi mumkin emas), balki magnit kvant soni  $m_s$  qiymatlari haqida ketayapti: Magnit kvant soni  $m_s$  elektronning spin momentining kvantlanish o'qiga proeksiyasini xarakterlaydi.

1. Alohida ajratilgan atomda elektronlar xarakatining shunday xolatlari borki, bu xolatlarda atom energiya chiqarmaydi (nurlanmaydi). Bu xolatlar statsionar xolatlar deyiladi. Xar qaysi bunday xolat aniq  $E_n$  (n-butun son) energiyaga ega bo'ladi (n-statsionar xolatlarining tartibini nomerini ko'rsatadi).

2. Elektronning bir statsionar xolatdan ( $E_n$  energiyasi katta bo'lgan) ikkinchisiga ( $E_h$  energiyasi kichik bo'lgan) o'tishida monoxromatik nur kvanti chiqarilishi kuzatiladi, uning chastotasi quyidagi shart bilan aniqlanadi:

$$E_n - E_h = h\nu$$

Kvantning energiyasi atomning ikki statsionar xolatlaridagi energiyalarining farqiga aniq teng bo'lgan taqdirdagina bu atom mana shu nurlanish kvantini yutish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Bu postulotlarni quyidagicha ta'riflash mumkin:

1. Atomda shunday orbitallar mavjudki, ularda aylanayotganda elektron nurlatmaydi.
2. Nurlanish faqatgina elektron bir statsionar orbitadan ikkinchisiga sakrab o'tgandagina sodir bo'ladi.

Elektron to'liqin xossalari ega. Bu fakt avvalambor frantsuz fizigi Lui De – Broyl tomonidan nazariy aytilgan edi. Xuddi shu yili frantsuz fizigi Lui De – Broyl to'liqin zarra dualizmi faqat fotonlar uchun emas, balki barcha mikrozaralar uchun xam kuchga ega bo'lishi kerak degan g'oyani ilgari surdi. Natijada yorug'likka xam, moddaga ham tegishli bo'lgan to'liqin va korpuskulyar xossalarning sintezi vujudga keldi va ular orasidagi bog'lanish yagona tenglamalar bilan ifodalanadi.

$$E = h\nu = hc/\lambda; p = E/c = h\nu/c = h/\lambda$$

Agar to'liqin sonini kiritsak:

$$K = 2\pi/\lambda = W/c$$

Impuls uchun

$$p = h/\lambda = h/2\pi \cdot 2\pi/\lambda = hK$$
 tenglamalarni olamiz.

$\lambda$  - to'liqin nazariyasining parametri;

R – korpuskulyar nazariyaning parametri;

R – fotonning xarakat miqdori (impulsi).

Bu tenglama to'liqin nazariyasi kattaligi  $\lambda$  bilan korpuskulyar nazariyaning kattaligi R ni h orqali bog'lar turadi. Elng'ektron va har qanday mikrozaralar uchun

$$\lambda = h/p = h/mv$$

ekanligini De-Broyl ko'rsatib berdi.

Bu tenglama elektronlarning difraktsiyasi (Devisson, Jermer) ochilgandan so'ng tajribaviy dalil oldi.

Bu zarra uchun to'liqin – korpuskulyar dualimdir. Bu munosabat De – Broyl tomonidan xamma zarralarga tadbiq qilindi. Bu munosabatda R impuls bilan xarakat qilayotgan va massasig teng zarrachaga to'g'ri keluvchi to'liqin uzunligi

$$\lambda = h/p = h/mv$$

orqali ifodalanadi.

Bu to'liqin uzunligi zarrachaning De-Broyl to'liqin uzunligi deb ataladi. Zarrachaga to'liqin xususiyatlarininng De-Broylgacha sezilmaganligining sababi uning to'liqin xususiyatlarining juda kichikligidir. Zarraninng to'liqin xususiyatlarini kuzatish uchun o'lchamlari atom masshtabida bo'lgan ob'ektlarini olish kerak.

De-Broyl g'oyasi 1927 yilda Devisson va Jermerlar tomonidan tajribada tasdiqlandi. Kattaligi V ga teng bo'lgan potentsial farqi ta'sirida tezlatilgan xar bir elektronlarning kinetik energiyasi  $T = eV$  bo'ladi.

Agar harakat miqdori  $m_e v = \sqrt{2m_e T}$  ekanligini xisobga olsak, tezlatilgan elektronlarning De-Broyl to'liqin uzunligi quyidagiga teng bo'ladi.:

$$\lambda = h/mv = h/\sqrt{2m_e T}$$

bu erda  $m_e$  elektronning massasi.

V q 100 eV bo'lgan xol uchun De-Broyl to'liqining uzunligi

$$\lambda = hc/\sqrt{2m_e c^2 eV} = 6/6 \cdot 10^{-27} \text{ эрл.сек} \cdot 3 \cdot 10^{10} \text{ см.сек}^{-1} / 25 \cdot 10^5 \text{ эВ} = 1.25 \text{ \AA}$$

bo'ladi. Bu qiymat rentgen nurlarining to'liqin uzunligiga yaqin. Demak, elektronlarning kristalldan difraktsiyalanish masalasining rentgen nurlarining xuddi shu kristallda sochilishi difraktsion manzarasiga o'xshashligining sababi ularning to'liqin tabiati yoki De-Broyl to'liqinlaridan ibratligi ekan. Hozirgi kunda kristallning ichki tuzilishini o'rganishda rentgenografiya bilan bir qatorda elektronlar va neytronlarning difraktsiyalanishiga asoslangan usullar ham keng qo'llaniladi. Shunday qilib, ma'lum tezlik bilan muayyan yo'nalish bo'yicha harakat qilayotgan zarracha o'zida to'liqin xossasini namoyon qiladi. Demak, yorug'lik dualizmi mikrozarralarga xam xosdir. Agar klassik tasavvurga ko'ra to'liqin uzluksiz muhitning tebranma harakati deb qaralsa, kvant tasavvuriga ko'ra to'liqin sifatida zarrachalar tarqaladi va interferentsiyalanadi. Zarracha fazoda xech vaqt biror aniq vaziyatni egallamaydi. U fazoning to'liqin amplitudasi qancha katta bo'lsa, shu nuqtada zarrani uchratish imkoniyati shuncha katta.

Zarrachalarning to'liqin xossalari ularning tarqalish jarayonida ko'plashib ishtirok etayotganligidan emasmikan degan savolni tug'diradi. Bu savoga javob berish uchun sovet olimi Fabrikant 1948 yilda quyidagicha tajriba o'tkazdi. Yakkama – yakkama yo'naltirilgan elektronlar yupqa metall plastinka orqali sochilib fotoplastinkada qayd qilindi. Natijada har bir elektron tartibsiz holda fotoplastinkaning biror bittagina nuqtasida iz qoldirdi.

Tajribada uzoq vaqt davom ettirilganda elektronlarning fotoplastinkada qayd qilingan nuqtalari to'plami taqsimotining ravshanligi maksimum va minimumlarga ega bo'ldi. Zarraning bu xil tabiatini, ya'ni zarra bilan De-Broyl to'liqini o'rtasidagi munosabatlarni qanday tushunmoq kerak.

M. Vorn yorug'lik yoki De-Broyl to'liqinining amplitudasi

$$\psi(r, t) = Ae^{i(\omega t - kr)}$$

ni fazoning biror-bir nuqtasida foton yoki zarrani qayd qilish ehtimolligi deb taklif qildi.

Zarraning qayd qilinishi ehtimolligi  $(A)^2$  ga teng bo'lib, optikada uni yorug'likning ravshanligi deb ataladi. De-Broyl to'liqinining ehtimollik xossasi yuqoridagi tajribadan ochiq ko'rinib turibdi. Xar bir elektronning plastinkadagi o'rni difraktsion manzara shartiga bo'ysunadi, lekin ehtimollik qonuni bilan tavsiflanadi. Plastinkaga kelib tushadigan ayrim elektronlarning o'rni oldindan aniq aytilish mumkin emas. Ammo fotoplastinkaga kelib tushayotgan elektronlar

soni ortishi bilan ularning fotoplastinka bo'ylab taqsimlanish statistikasi qonuniga yaqinlashadi. Klassik mexanikada zarralarning asosiy xossasi uning traektoriyaga ega ekanligidir. Makro zarra fazoning biror nuqtasida o'rnashsa qolgan qismida namoyon bo'lmaydi, aksincha klassik to'lqin optikasida to'lqin fazoning hamma qismida baravariga mavjuddir.

Kvant nazariyasining tasavvuriga binoan zarra fazoning istalgan nuqtasida bo'la oladi, lekin uni har bir nuqtada qayd qilinishi o'z ehtimolligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun elektron, foton va boshqa mikrozarralarning harakatini traektoriya tushunchasi bilan tasvirlash mumkin emas. Ular kvant xarakteristikalaridan tashqari klassik xarakteristikaga ega – aniq zaryadga, massaga va energiyaga egadir.

### **Muxokama uchun savollar:**

1. Fotoeffekt va uning qonuniyatlari
2. Kompton effekti.
3. Issiqlik sig'imi temperaturaga qanday bog'liq?
4. Shtern va Gerlax tajribalari nimani tushuntiradi?
5. Elektronning spini tushunchasi.
6. Devisson va Jermer tajribalari.

### **3-mavzu: GEYZENBERGNING NOANIQLIK MUNOSABATLARI**

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** Yorug'lik to'lqini, to'lqinnazariyasi parametri, turg'un to'lqin, sinusoidal to'lqin, impuls, harakat miqdori momenti, korpuskulyar nazariya parametri, Plank doimiysi, chastota, amplituda, koordinata va vaqt.

#### **REJA:**

1. Mikrozarrachalarga maydon kuchlarining ta'siri.

2. Yorug'lik to'liqlarining xossalari o'rganish
3. Yorug'lik to'liqini ma'lum bir vaqtda qaerda (x o'qining qaysi qiymatida) bo'ladi va qanday to'liq soni va uzunligi  $\lambda$  ga ega bo'ladi?

1924 yilda frantsuz fizigi Lui de-Broyl korpuskulyar to'liqin dualizmi faqatgina fotonlar uchun emas, balki barcha mikrozarrahalar uchun taalluqlidir degan g'oyani ilgari surdi.

$$\lambda = \frac{h}{p} = \frac{h}{mv}$$

De – Broyl to'liqin uzunligi (to'liqin nazariyasidagi parametr) ni impuls  $P$  q  $mv$  (harakat miqdori momenti – korpuskulyar nazariya parametri) bilan Plank doimiysi orqali bog'ladi.

Lekin de-Broyl g'oyasi kvant mexanikasining yaratilishida faqat boshlang'ich turtki bo'ldi xolos. Bu g'oya mikrozarrahaning xulqi (harakatini) maydon kuchlanganligidan xoli ravishda ko'rgan. Aslida esa hamma material zarrahalar masalan elektron, maydon kuchlarining ta'siri ostida bo'ladi. Bu nuqtai nazardan elektronlar atomda markaziy simmetriyaga ega bo'lgan maydonda harakatlanadi. Bunday maydon uchun potentsial energiya yadrogacha bo'lgan masofagagina bog'liq bo'ladi. Markaziy kuchlar maydonidagi harakat qonuniyatlari atom mexanikasining asosini tashkil qiladi. Atom va molekullarning tuzilishidagi xamma ma'lumotlar ularning elektromagnit nurlanish bilan ta'sirini o'rganish natijasida olingandir. Makroskopik dunyo haqidagi bilimlarimizning ko'pi xam elektromagnit nurlanishga bog'liqdir. Yorug'lik bu elektromagnit nurlanishning bir turi bo'lib, u odamlarga ko'rish qobiliyatini beradi. Radioto'liqlar - elektromagnit nurlanishning boshqa turi. Quyoshdan erga kelayotgan barcha energiya xam elektromagnit nurlanish shaklidir.

Elektromagnit nurlanishni muhokama qilayotganda to'liqin tushunchasidan foydalaniladi. Yorug'lik to'liqinining faqat elektr maydoni (magnit maydon ham bo'lib) xisobga olib, bu yorug'lik to'liqinining elektr maydonining kuchlanganligi uchun (biror bir chastotaga ega bo'lgan) quyidagi tenglamani yozishimiz mumkin (yassi monoxromatik to'liqin uchun):

$$E = E_0 \cos 2\pi\nu\left(t - \frac{x}{c}\right) = E_0 \cos 2\pi(\nu t - kx) \quad (1)$$

Bu erda  $E_0$  – yorug'lik to'liqinining amplitudasi (yorug'likning intensivligi  $E_0^2$ ) bilan belgilanadi,  $t$  – vaqt,  $x$  – tarqalish yo'nalishidagi koordinati,  $s$  – yorug'lik tezligi,  $\nu$  - tebranishlar chastotasi (takroranligi, 1 sekunddagi davriyliklar soni),  $k$  – to'liqin soni, ya'ni 1 sm ga joylashgan to'liqin uzunliklari soni:

$$k = \frac{\nu}{c} = \frac{1}{\lambda}$$

To'liqlar amplituda, chastota va to'liqin uzunligi, va tezlik bilan harakterlanadi, va  $v\lambda$  q  $C$  ga teng.

To'liqlarning va to'liqin harakatlarining har xil tiplari ma'lum.

Masalan, musiqa asboblardagi torlar turg'un to'liqlarni beradi va ular qulog'imizga akustik to'liqlar sifatida eshitiladi.

Shredinger bo'yicha atom sistemasi (zamknutaya), shuning uchun elektronning atomdagi turg'un to'liga o'xshagan (mos keladi).

(1) formulani yozib biz yorug'lik to'lini cheksizlikdan cheksizlikka tarqalib, o'zining cheksiz uzunligida (protyajennost) biron bir chastota  $\nu_1$  to'lin uzunligi  $\lambda$  va amplituda  $E_0$  bilan harakterlanadi deb faraz qildik. Lekin aslida har qanday yorug'lik to'linining fazoda va vaqtda boshlanishi va oxiri bo'ladi: yorug'lik to'lini atom yoki molekula bilan ma'lum bir vaqtda va fazoning ma'lum bir nuqtasida chiqariladi. To'linning chiqarilishi cheksiz davom etmaydi, bir qancha vaqt o'tishi bilan nur manbai o'chadi. Shuning uchun real (haqiqatda) to'lin cheklangan sinusoida shaklida bo'ladi.

Yorug'lik to'linlarining xossalari, ularning uzunligi  $\lambda$  va  $\nu$  chastotasi (takroranligi) spektroskop asbobi yordamida o'rganiladi. Bu asbob garmonik analizator vazifasini bajaradi. Spektroskopning prizmasi har qanday real yorug'lik impulsini (cheklangan sinusoidaga o'xshash impulsni ham) cheksiz sinusoidalarning uzluksiz to'plamiga ajratadi. Bu ajralgan sinusoidalar amplitudalar, to'lin uzunliklari va chastotalari bilan xarakterlanadi.

Agar spektroskopga cheksiz cho'zilgan va ma'lum amplitudaga ega bo'lgan to'lin tushsa, spektrda  $\nu$  chastotaga ega bo'lgan  $\lambda$  dona chiziq xosil bo'ladi. Agar spektroskopga chegaralangan (cheklangan) uzunlikka ega bo'lgan to'lin (impuls - sinusoida) tushsa, spektr har xil intensivlikka ega bo'lgan va chastotalar oralig'ida (intervalida) (har xil chastotalarga ega bo'lgan) chiziqlarning uzluksiz to'plami (paketi) xosil bo'ladi. Demak, cheklangan uzunlikka ega bo'lgan har qanday yorug'lik impulsini xar xil chastota, amplituda va fazalarga ega bo'lgan cheksiz sinusoidalar to'plami bilan ifodalanishi (tavsiflanishi) mumkin va bu sinusoida uzunligiga  $S$  ga teng bo'lgan joyda to'g'ri tasvirni beradi. Impuls  $S$  ning uzunligi qanchalik kichik bo'lsa, bunday ajralgan (razlojivshixsya) sinusoidalar shunchalik ko'p bo'lishi kerak va chastotalar intervali  $\Delta\nu$  (oralig'i) shunchalik keng bo'ladi. (xar xil chastotalarga ega bo'lgan to'linlar ko'p bo'ladi).

Demak, cheksiz sinusoidalarni qo'shish natijasida shunday yorug'lik impulsini xosil qilishimiz mumkinki, uning amplitudasi fazoning ma'lum bir qismida ( $S$  kichik intervalida) noldan farq qiladi.  $S$  uzunlikdagi impulsni hosil qiluvchi monoxromatik, cheksiz to'linlarning soni intervali  $\Delta k$   $S$  bilan quyidagicha bog'langan.

$$S \Delta k = 1 \quad (2)$$

Ya'ni boshqa so'zlar bilan aytganda,  $S$  qancha katta bo'lsa, ( $S \Delta x$ -impuls uzunligi;  $x$  koordinata bo'yicha tarqaluvchi to'lin intervali,  $\Delta k$  intervali shuncha tor bo'ladi. ( $S$  impuls to'lin soni  $\Delta k$  ga teskari proporsional bo'lsa, to'lin uzunligi oralig'i  $\Delta \lambda$  ga to'g'ri proporsionaldir).

(2) tenglamani quyidagicha qayta yozamiz.

$$(3) \quad \Delta x \Delta k = 1$$

Shunday savol tug'iladi: yorug'lik to'lini ayni vaqtda qaerda ( $x$  ning qaysi qiymatida) bo'ladi va qanday to'lin soni  $k$  ga, ya'ni qanday to'lin uzunligiga ega bo'ladi? Bu savolga mutlaqo (absolyut) to'g'ri javob berish mumkin emas. Yorug'lik impulsini qanchalik tor bo'lsa,  $\Delta x$  shunchalik kichik bo'ladi va yorug'lik



impulsining holati shunchalik aniq bo'ladi, lekin shu bilan bir paytda  $k$  (to'lqin soni) qiymatlarining intervali (oralig'i) shunchalik keng bo'ladi. Va buning teskarisi, qanchalik  $k$  va  $\lambda$  lar aniq topilgan bo'lsa,  $\Delta k$  ning intervali shunchalik tor bo'ladi va  $x$  ning intervali shunchalik keng bo'ladi. Buni (ushbu xodisani) uning spetsifik to'lqin bilan tushuntirish mumkin, chunki  $\lambda$  va  $v$  tushunchalari faqatgina cheksiz sinusoidaga tadbiiq qilingandagina aniq ma'noga egadir.

Xuddi (3) tenglamaga o'xshash tenglamani shunga shunga o'xshash bo'lgan mulohazalar yuritib chastota va vaqtga xam chiqarish mumkin: 2 ta tajribani ko'ramiz.

Birinchi tajribada yorug'lik to'lqinining berilgan nuqtadan o'tish vaqtini aniq topmoqchimiz. Bunda gorizontal tarqalayotgan yorug'lik nuriga perpendikulyar ravishda xarakat qilayotgan yorug'lik fotoplastinkada yorug'lik to'lqinini kuzatamiz. Agar to'lqin cheksiz ( $S \rightarrow \infty$ ) bo'lsa, plastinka uzunligida uning sirti bo'yicha qoramtir chiziq xosil bo'ladi (yorug'lik to'lqinning izi va yorug'lik to'lqinining berilgan nuqtadan o'tish vaqti noaniq bo'ladi.) Yorug'lik impulsi  $S$  qanchalik kichik bo'lsa fotoplastinkadagi iz kalta bo'ladi va yorug'lik impulsining o'tish vaqti shunchalik aniq topiladi. Ko'rinib turibdiki vaqtning aniq topilishi faqat cheksiz kichik impuls uchun mumkindir.

Ikkinchi tajribada yorug'lik to'lqining tebranish chastotasini o'lchamoqchimiz. Buning uchun yana yorug'lik nurini spektrograf plizmasidan o'tkazib, o'tayotgan yorug'likni bu gal xarakatsiz turgan fotoplastinkada kuzatamiz. Agar to'lqin cheksiz bo'lsa va faqatgina aniq  $v$  chastotaga ega bo'lsa, fotoplastinkada ingichka spektral chiziq xosil bo'ladi va chastota aniq topilgan bo'ladi. Lekin bu xolda biz to'lqinning utish vaqti xaqida xech narsa deya olmaymiz.

Agar to'lqin impulsi cheklangan bo'lsa, yuqorida aytilgandek, u uzluksiz sinusoidalar to'plamidan iborat bo'ladi va fotoplastinkada ingichka chiziq yo'g'onlashadi. Chastotani aniq topish yo'qoladi, lekin vaqtni aniq topilishi ortadi. Va nixoyat, cheksiz kichik impuls uchun chastotani qiymatidagi noaniqlik cheksiz oshib ketadi, lekin to'lqin o'tishi vaqtini xoxlagancha aniqlik bilan topish mumkin:

$$(4) \quad \Delta v \Delta t = 1$$

Demak, bir vaqtning o'zida chastotani va yorug'lik to'lqinining o'tish vaqtini aniq o'lchash mumkin emas, bunday o'lcham xech qanday ma'noga ega emasdir.

Biz ko'rdikki,  $x$  va  $k$ ,  $t$  va  $v$  larni bir vaqtning o'zida o'lchab bo'lmaslik yorug'likning to'lqin tabiati bilan to'la belgilanadi.

Jismlarning koordinatalari va tezligining qiymatlari xar qanday moment uchun aniq bo'lsa, ular troektoriyaga ega deyiladi. Makrosistemalar uchun bu troektoriyani har doim aniqlash mumkin. Lekin elektron (va mikrozarachalar) to'lqin xossalriga ega bo'lgani uchun unga troektoriya tushunchasini qo'llab bo'lmaydi.

Yorug'lik to'lqinlari uchun yozgan:  $\Delta x \Delta k = 1$

tenglamani de-Broyl formulasini hisobga olib  $\lambda = \frac{h}{mv}$  quyidagicha yozishimiz mumkin: (4)ni o'rniga qiymatini ko'yamiz:

$$(5) \quad m\Delta v\Delta x = \Delta x\Delta p = h$$

Bu erda  $P = mv$  - harakat miqdori momenti yoki x yo'nalishdagi harakatlanuvchi elektronning impulsi  $S = \Delta x = \lambda$  ma'nosi.

Bu tenglama elektron to'lqinida bir vaqtning o'zida koordanata va tezlik (yoki impuls) ning aniq qiymatlarini topishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Koordinataning qiymati aniq bo'lsa, ( $\Delta x \neq 0$ ), impuls hech qanday qiymatga ega bo'lmaydi  $\left(\Delta p = \frac{h}{\Delta x} \rightarrow \infty\right)$  va teskarisi.

Xuddi shunday usul bilan  $\Delta n\Delta t = 1$  tenglamadan va  $E = h\nu$  va  $\nu = \frac{E}{h}$  ni xisobga olib,

$$(6) \quad \Delta E\Delta t = h$$

tenglamani keltirib chiqaramiz.

(5) va (6) tenglamalar, birinchi bor Geyzenburg tomonidan topilgan bo'lib, noaniqlik munosabatlari deyiladi. Bu kvant mexanikasining asosiy printsiplari xisoblanadi. Verner Geyzenburg (1901-1976 yillar).

(6) munosabat zarra energiyasini  $\Delta E$  aniqlik bilan o'lchash uchun kamida  $\Delta t = \frac{h}{\Delta E}$  vaqt o'tishini ko'rsatadi. Bu munosabatga binoan, agar o'lchash uchun ketgan vaqtni o'lchash aniqligi  $\Delta t$  kichik bo'lsa, sistema energiyasini o'lchashdagi noaniqlik kattaroq bo'ladi.

Geyzenburgning noaniqlik munosabatiga binoan biz endi fazoning biror nuqtasida zarrani aniq mavjud bo'la olishi to'g'risidagi fikrdan qaytishimiz zarur bo'lib, aksincha mazkur daqiqada uni o'zining de-Broyl to'lqini egallagan fazo bo'lagining istalgan nuqtasida bo'lish ehtimolligi to'g'risida gap yuritishimiz kerak.

Geyzenbergning noaniqlik ifodasiga ko'ra nima uchun tezlanishga ega bo'lgan elektron yadroga yiqilib tushmasligi yoki nur chiqarmasligi sababini ko'rib chiqaylik. Faraz qilaylik, eger elektron yadroga tushib qolsa (2) munosabatga ko'ra uning koordinatining aniqligi ortib ketadi. Elektron yadroga tushgunga qadar  $\frac{h}{mc^2} \sim 10^{-8}$  sm oraliqda lokallashgan bo'lsada, yadroga tushgandan keyin esa  $10^{-13}$  sm masofada lokallashadi. (5) munosabatni qanoatlantirish uchun fazada aniq lokallashgan mikroob'ekt impulsining o'rtacha qiymati katta bo'lishi kerak.

Demak elektronni yadrodan nariroqda ushlab turish uchun kuch sarflamasdan, balki yadroga tushirish uchun kuch sarflashimiz kerak ekan. Shu sababdan atomdagi elektronlar yadroga yiqilmay bemalol uning atrofida to'xtovsiz aylanib turadi.

### **Geyzenbergning noaniqlik munosabatlari**

To'lqin 3 ta kattalik bilan xarakterlanadi: 1 - to'lqin uzunligi, n - chastota va  $v_f$  - fazoviy tezlik. Fotonlar uchun vaakumda fazoviy tezlik yorug'lik tezligiga (s) teng bo'ladi:

$$\lambda v = c \quad (1)$$

Bu tenglamada 2 ta kattalik  $v$  va  $\lambda$  ma'lum bo'lib, ularni tajribadi o'lchab bo'lmaydi. Makrozarrachalarga kelganda ularning korpuskulyar xossasini xarakterlaydigan kattalik  $V$  - tezlik, de - Broyl to'lqin uzunligiga (2)  $\lambda$  teskari proporsional. Zarracha tezligining (2) unga mos bo'lgan to'lqinning tarqalish tezligidan (1) farqi bo'lishi kerak.  $V \neq v_f$  desak unga to'g'ri bo'lmaydi, chunki yorug'lik nurining  $\lambda \rightarrow \infty$  de - Broyl to'lqinining to'lqin uzunligi esa kichikroq bo'ladi. Shuning uchun moddiy zarra fazoviy tezlik o'rniga gruppaviy tezlik ( $V_{gr}$ ) degan tushunchadan foydalanamiz:  $\lambda v = c$ ;  $\lambda v_{gr} = V_{gr} \lambda$ . Agar  $\lambda \rightarrow \infty$  ( $V_{gr} \rightarrow c$ ) bo'lsa,  $v_{gr} \rightarrow c$  ( $V_{gr} \rightarrow c$ ) ga teng bo'ladi. Monoxromatik nur tezligi;  $v_{gr} = c$  de - Broyl to'lqining tarqalish tezligini ifodalaydi. Bunday to'lqin impulsini to'lqin paketi deb ham aytiladi. To'lqin paketi to'lqin uzunliklari yaqinida yotgan bir qancha to'lqinlarni o'zaro bir - biri bilan ta'sirlanishi (ustma - ust taxlanish) natijasida hosil bo'ladi.

Paket markazidagi  $V_{gr}$  tezlik  $v_f$  dan farqlanadi. Fazoviy tezlik bevosita fizikaviy ma'noga ega emas. Agar muhit dispersiyalovchi bo'lmasa, ya'ni to'lqinning fazoviy tezligi uning gruppaviy tezligiga teng bo'ladi:

$v_f = v_{gr}$ . Aks holda  $v_f \neq v_{gr}$  bo'ladi. Paketning kengligi kamayishi bilan gruppaviy tezlik fazoviy tezlikka yaqinlashadi ( $v_{gr} \rightarrow v_f$ ).

Real moddiy zarrachaga mavjudlik chegarasi kichik bo'lgan to'lqin paketi to'g'ri keladi desak bo'ladi. Uning tezligi  $v$  q  $v_{gr}$  ekanligi tajribada tasdiqlangan.

$$\begin{aligned} V &= \frac{d\omega}{dk} = \frac{d(h\nu)}{d(h/\lambda)} = \frac{d(h\nu)}{d(h/m \cdot d\nu/d\nu)} \\ &= \frac{h\nu}{h} \cdot \frac{1}{d\nu} = \frac{1}{d\nu/d\nu} = \frac{1}{m} \cdot \frac{dE}{d\nu} = \frac{1}{m} \cdot \frac{d(m\nu^2/2)}{d\nu} = \frac{1}{2} \cdot \frac{d(m\nu^2)}{d\nu} = \frac{1}{2} \cdot \frac{dE}{d\nu} = \frac{1}{2} \cdot \frac{d(m\nu^2)}{d\nu} \end{aligned}$$

Demak, xarakter tezligi -  $v$  ga, massasi  $m$  - ga teng bo'lgan zarrachaning energiyasi kelib chiqdi. Korpuskulyar hususiyat bo'lgan energiya bilan to'lqin protsesslariga xos bo'lgan xususiyat - chastota o'rtasidagi munosabat topildi.

Shunday qilib, biz elektronning korpuskulyar xossalari  $E$  va  $v$  bilan to'lqin xossalari ( $\lambda$ ,  $\nu$ ) o'rtasidagi munosabatni aniqladik. Zarrachaning massasi va zaryadini bilgan holda Plank doimiyligidan quyidagi ifoda vositasi bilan uning uzunlik olchamini aniqlash mumkin:  $r_1 = \frac{e^2}{4\pi\epsilon_0 m c^2} = 0.53 \cdot 10^{-8} \text{ sm}$ . Bu miqdor Bor nazariyasiga asoslanib topilgan birinchi orbitaning uzunligiga teng. Molekulalardagi atomlar aro masofalar esa  $10^{-8}$  sm atrofida bo'ladi. Demak, makroxodisalar sohasidan makroxodisalar sohasiga o'tish chegarasi  $10^{-8}$  sm atrofida bo'lar ekan.

Korpuskulyar xususiyat bo'lgan impuls  $R = mv$  bilan, to'lqinlarga xos bo'lgan hususiyat 1 o'rtasidagi munosabat quyidagicha topiladi:

$$\begin{aligned} R &= mv = \frac{h}{\lambda} \cdot \frac{h\nu}{h} = \frac{h\nu}{\lambda} = \frac{h\nu}{\lambda} = \frac{h\nu}{\lambda} \\ &= \frac{h\nu}{\lambda} = \frac{h\nu}{\lambda} = \frac{h\nu}{\lambda} = \frac{h\nu}{\lambda} \end{aligned}$$

Bu munosabat impuls  $R$  ning vektor kattalik ekanligini ko'rsatadi:

$$\vec{R} = \hbar \cdot \vec{k}$$

Bu tenglamaning chap tomoni mikrosistemalarning korpuskulyar, o'ng tomoni esa to'lqin xossasini ifodalaydi.

Endi mikroobektlar bilan ish ko'rayotgan paytimizda energiya, impuls, impuls momenti tushunchalaridan qanday foydalanish kerakligini ko'rib chiqaylik.

Yassi to'lqinlar to'plami  $X$  o'qi bo'yicha tarqalayotgan bo'lsin, to'lqinlar takrorligi  $\dot{W}$ , vektori esa  $K_x$  intervalda o'zgarayotgan bo'lsin. Agar shu to'lqinlarni bir – birini ustiga “taxlasak”, ular o'zaro tasirlashish, interferentsiyalanish oqibatida natijaviy to'lqin - to'lqin paketini hosil qiladi.

To'lqin paketini fazoda va vaqtda uchratish noaniqligi quyidagi munosabat bilan ifodalanadi:

$$\begin{aligned}\Delta \dot{W} \cdot \Delta t &\geq h \\ \Delta K_x \cdot \Delta x &\geq h\end{aligned}\quad (2)$$

Bu munosabat 1927 yilda Verner Geyzenberg tomonidan aniqlangan bo'lib, u kvant mexanikaning sosiy printsipti xisoblanadi.

Bu munosabatga ko'ra elektronning koordinatini qanchalik aniqroq topmoqchi bo'lsak, uning impulsining  $X$  o'qiga proektsiyasining qiymati shunchalik noaniqlashadi.

Zarraning koordnatasini va impulsini bir vaqtda aniqlash yo'lida vujudga kelgan koordinata – impuls noaniqligi elektronning to'lqinsimon harakati, ya'ni xaqiqatdan ham  $\Delta r$  va  $\Delta x$  sohasida yoyilganligi sababli yuzaga keladi va noaniqlik munosabati (printsipi) deb ataladi. Noaniqlik printsipti, umuman, muayyan o'zgaruvchi fizikaviy kattaliklar juftini bir vaqtda o'lchash aniqligi masalasiga talluqlidir. Noaniqlik printsipti tasiriga tobe bo'lgan fizikaviy kattaliklarning ikkinchi jufti zarra energiyasi va energiyani o'lchash uchun ketgan vaqtda:

$$\Delta E \cdot \Delta t \geq 2\pi h$$

Bu munosabat zarra energiyasini  $E$  aniqlik bilan o'lchash uchun kamida  $\Delta t = \frac{h}{\Delta E}$  vaqt o'tishini ko'rsatadi. Bo'shqacha qilib aytganda, agar sistema qandaydir istalgan o'lchash jarayonida  $\Delta t$  vaqt davomida biror xolatda mavjud bo'lsa, uning bu xolatidagi energiyasi  $\frac{h}{\Delta t} \geq 2\pi$  dan kam bo'lmagan noaniqlik bilan o'lchanadi. (3) munosabatga binoan, agar o'lchash uchun ketgan vaqtni o'lchash noaniqlik kattaroq bo'ladi. Geyzenbergning noaniqlik munosabatiga binoan, biz endi fazaning biror zarrani aniq mavjud bo'la olish to'g'risidagi fikridan qaytishimiz lozim bo'lib, aksincha. Mazkur daqiqada uni o'zining de - Broyl to'lqini egallagan fazo bo'lagining istalgan nuqtasida bo'lish ehtimolligi to'g'risida gap yuritishimiz kerak.

### **Muxokama uchun savollar:**

1. De- Broyl to'lqin uzunligi tushunchasi.
2. To'lqin turlari, turg'un to'lqin, cheklangan sinusoida tushunchalari.
3. Koordinata bilan impuls va energiya bilan vaqt orasidagi munosabatlar qanday?
4. To'lqin paketi tushunchasi.
5. Noaniqlik munosabatlaridan qanday hulosalar chiqarish mumkin?

### **4-mavzu: ShREDINGER TENGLAMASI.**

(Shredinger tenglamasining kelib chiqishi)

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** Elektronning xarakati, uning to'liqin funksiyasi, to'liqin funksiyasi echimi, stasionar holat, Shredinger tenglamasi, Laplas operatori, Gamelton operatori.

**REJA:**

1. To'liqin parametrlari nima?
2. Mikrozarrachalarning muvozanat xolatdan siljishidagi xarakat qonuniyatlarini matematik usullarda taxlil qilish
2. Shredinger tenglamasini keltirib chiqarish.
3. Kvant g'oyasining xulosalari.
4. Shredinger tenglamasining bir o'lchamli potentsial chuqurligida xarakat qilayotgan elektronning xarakatiga tadbqiq etish.

Agar zarrachaning harakatini to'liqin uzunligi  $\lambda$  q  $hG'mv$  bo'lgan to'liqinsimon protsess desak, u holda shu to'liqinsimon protsessning tarqalishini harakterlaydigan kattalakni - to'liqin funksiyasi ( $\Psi$ ) va unga mos kelgan chastotani ( $\nu$ ), yani 1 sekunda to'g'ri keluvchi tebranish takrorligini topishimiz mumkin.

Fazada to'liqinsimon xarakat qilayotgan zarrachaning muvozanat holatiga nisbatan siljishi vaqt o'tishi bilan davriy bo'lib, bu siljish garmonik xarakat qonuni bo'yicha, yani sinus yoki kosinus qonuni bo'yicha ifoda etiladi.

To'liqin protsessi quyidagi parametrlar bilan haraktlanadi: to'liqin uzunligi  $\lambda$ , uning amplitudasi  $a$  va chastotasi  $\nu$ .

Bir o'lchamli yo'nalishda, yani faqat  $X$  uki bo'lib tarqalayotgan to'liqinning harakati quyidagi tenglama bilan ifoda etiladi:

$$(1) \quad \Psi = a \cdot \sin(2\pi G' \lambda) \cdot x$$

$\Psi$  ning qiymati tebranayotgan kattalikning 0 dan qanchalik farq qilishini ko'rsatadi va u siljish deb ataladi.  $2\pi x G' \lambda$  - tebranish fazasi deb ataladi. (1) formulani  $x$  bo'yicha 2 marta differentsiallasak quyidagi ifodani olamiz:

$$(2) \quad \frac{\partial^2 \Psi}{\partial x^2} = - (4\pi^2 G'^2 \lambda^2) \cdot a \sin(2\pi G' \lambda) \cdot x$$

(2) tenglamadagi  $a \sin(2\pi G' \lambda) \cdot x$  ni o'rniga (1) tenglamadagi  $\Psi$  ni qo'ysak

$$(3) \quad \frac{\partial^2 \Psi}{\partial x^2} = - (4\pi^2 G'^2 \lambda^2) \cdot \Psi$$

De - Broyl tenglamasi bo'yicha  $\lambda = \frac{h}{G'p}$  edi. Bundan  $\lambda^2$  ning shu qiymatini olib borib (3) tenglamaga qo'yamiz:

$$(4) \quad \frac{\partial^2 \Psi}{\partial x^2} = - 4\pi^2 G'^2 \frac{h^2}{p^2} \cdot \Psi$$

Bu erda  $R$  - zarrachaning impulsi bo'lib, uning klassik mehanikadagi qiymati  $R = mv$  edi. Shu ifodani kvadratga oshirsak va tenglamaning o'ng tomonini 2 ga ko'paytirib xam bo'lsak:

$$R^2 = 2m \cdot mv^2 = 2m E_k$$

$E_k$  - kinetik energiya. Uning o'rniga  $E_k = E - U$  ni qo'ysak  $R^2 = 2m(E - U)$ , bu yerda  $E$  - to'liqin energiya,  $U$  - potentsial energiya.  $R^2$  ning shu qiymatini (4) tenglamaga qo'ysak:

$$(5) \quad \frac{\partial^2 \Psi}{\partial x^2} = - 4\pi^2 G'^2 \frac{h^2}{2m} (E - U) \Psi = - 8\pi^2 m G'^2 \frac{h^2}{2m} (E - U) \Psi$$

Endi (5) tenglamani ikkala tomonini  $- \frac{h^2}{8\pi^2 m}$  ga ko'paytirsak, quyidagi ifodani olamiz:

$$(6) \quad -\hbar^2 \nabla^2 \Psi - m \cdot \Psi = E \Psi$$

Agar to'liq 3 o'lchamli yo'nalishda tarqalayotgan bo'lsa u holda (6) tenglamaga  $\Psi$  ning u va z koordinatorlar bo'yicha differentsialarni ham qo'shib yozmoq kerak::

$$(7) \quad -\hbar^2 \nabla^2 \Psi - m \cdot \Psi = E \Psi$$

Bu tenglama kvant mexanikasining asosiy tenglamasi bo'lib, uni Shredinger tenglamasi deb ataladi. Shredinger tenglamasini soddaroq ko'rinishda yozish uchun  $\Delta$  degan simvol kiritamiz:

$$\Delta(\nabla^2 \Psi - m \cdot \Psi) = E \Psi$$

(nabla) ni Laplas operatori deb ataladi. U holda (7) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$-\hbar^2 \nabla^2 \Psi - m \cdot \Psi = E \Psi$$

Yoki

$$(-\hbar^2 \nabla^2 - m) \cdot \Psi = E \Psi$$

Qavs ichidagi ifoda energiya operatori yoki gamilton operatori deb ataladi va uni  $S$  simvoli bilan belgilanadi. Gamilton operatori orqali ifodalasak Shredinger tenglamasi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S \Psi = E \Psi$$

(7) tenglamadagi  $\Psi$  ni to'liq funksiyasi deb ataladi. Kimyoda uni vaqtga bog'liq bo'lmagan qismidan foydalaniladi. Demak, (7) tenglama sistemasining vaqtga bo'g'liq bo'lmagan statsionar holatlardagi to'liq funktsiyasini va energiyani hisoblab topishga imkon beradi. Shuning uchun Shredinger tenglamasini echish - shu tenglamani qanoatlantiridigan to'liq funktsiyasini  $\Psi$  ni topish demakdir.

Funktsiyaning kvadrati  $\Psi^2$  aniq fizik ma'noga ega bo'lib, u zarrachaning fazoning ma'lum bir joyida bo'lish ehtimolligini ko'rsatadi.  $\Psi^2$  ni elementlar hajmiga -  $dv$  ga ko'paytmasi to'liqsimon harakat qilayotgan zarrachalarning shu elementlar hajmida bo'lish ehtimolligini ko'rsatadi.

To'liq funktsiyasi tugallangan, bir qiymatli va uzluksiz bulishi kerak. Tugullangan bulish sharoitining ma'nosi shundan iboratki  $\Psi$  va uning kvadrati  $\Psi^2$  cheksiz fazoda emas, uning ma'lum bir joydagina 0 dan farq qiluvchi qiymatlarga ega bo'lishi kerak, ya'ni mikrozarra, masalan, elektron atomda, molekulada yoki kristalda uchratiladi. Bular esa chegaraga ega bo'lgan sistemalardir.  $\Psi$  funktsiyaning tugallangan bo'lishi uning normalanuvchanligini, ya'ni  $\int \Psi^2 dv = 1$  bo'lishini ta'minlaydi.

To'liq funktsiyasining bir qiymatli bo'lishi shu harakat qilayotgan zarrachani berilgan malum xajm elementida topish ehtimolligi aniq songa teng demakdir. U katta, kichik yoki nolga teng bo'lgan faqat bitta kimyoga ega bo'ladi.

Funktsiyaning uzluksiz bo'lishi bu zarrachaning bo'lish ehtimolligini aniqlab bo'lmaydigan xajm elementning bo'lishi mumkin emas deganidir. Bundan tashqari funktsiyaning qiymati xarakat qilayotgan zarra bo'lmaydigan erlarda 0 ga

aylanishi kerak. Shu sharoitlarga ham javob beradigan (7) tenglamaning echimi Shredinger tenglamasining xususiy funktsiyalari deb ataladi, unga to'g'ri kelgan energiya Gamilton operatorining xususiy qiymati deyiladi.

Shunday qilib kvant g'oyani qanday paydo bo'lganini yakunlab xulosa sifatida quyidagilarni takidlaymiz:

1. Mikroob'ekt xolatlarini belgilovchi fizikaviy kattaklar diskret (uzlukli) qiymatlarni qabul qiladi. Atomlar dunyosida ro'y beraydigan har qanday muammolarning echilishi  $E \geq hv$  va  $\lambda \geq hG' mv$  munosabatlarga asoslangan.

2. Mikroobektlar bir vaqtning o'zida ham zarra ( korpuskula) va ham to'lqin xossalarga ega bo'ladi.

3. Zarralarning holatlari to'lqin funktsiyasi vositasi bilan tavsiflanadi. Erkin xarakat qilayotgan zarraning to'lqin funktsiyasi de – Broyl yassi (ploskaya volna) to'lqinning matematik ifodasidir.

4. Har qanday zarra uchun de - Broyl to'lqini funktsiyasi chekli, bir qiymatlilik shartiga ko'ra  $\Psi$  funktsiya fazoning har bir nuqtasida va vaqtning har qanday daqiqasida aniq, chekli bitta qiymatga ega bo'ladi.  $\Psi$  – funktsiyasi o'zicha hech qanday funktsiyaviy ma'noga ega emas, lekin uning vaqtning ma'lum momentida fazoning biror nuqtasi uchun hisablangan absolyut qiymatining kvadrati esa, vaqtning xuddi shu nuqtasida zarrani qayd qilish ehtimoliga proporsionaldir. Bu esa  $G' \Psi G'^2$  dan butun fazo bo'yicha olingan integralning chekli bo'lishini talab qiladi.

Agar  $\int_0^{\infty} G' \Psi G'^2 dv$  q 0 bo'lsa, umuman zarra hech erda yo'q deganini bildiradi.  $dv$  – fazo elementi

Agar  $\int_{-\infty}^{\infty} G' \Psi G'^2 dv$  q  $\infty$  bo'lsa, zarra bir vaqtning o'zida

fazoning xamma qismida mavjud. Bu hol albatta tajribaga to'g'ri kelmaydigan, fizik manoga ega bo'lmaydigan xoldir.  $G' \Psi G'^2$  dan butun fazo bo'yicha olingan integral chekli bo'lishi kerak, chunki zarra berilgan vaqt momentida fazoning biror nuqtasidagina mavjud.  $G' \Psi G'^2$  ning qiymatini zarraning qayt qilish ehtimoligiga teng deb xisoblash maqsadga muvofiq bo'lib. Tajribani bu xulosani tasdiqlaydi.

Agar  $G' \Psi G'^2$  ning qiymatini berilgan vaqt momentida fazoning berilgan nuqtasida  $\Psi$  funktsiya tavsiflovchi zarraning qayd qilish ehtimoligiga teng deb qarasaq, butun fazo bo'yicha  $G' \Psi G'^2$

dan olingan integral  $\int_{-\infty}^{\infty} G' \Psi G'^2 dv \geq 1$  bo'lishi kerak, chunki

matematika tili bilan aytganda butun fazo bo'ylab zarraning qayd qilish ehtimoligi birga teng. Bu munosabatni qanoatlantiruvchi to'lqin funktsiya normallangan funktsiya deyiladi.


5. Mikrozarachalar klassik manoda aniq traektoriyaga ega emas. Lekin zaryad , massa va xokazo kabi klassik zarra xarakteristikalari makrozarachalarni kvant mexanikada ham xarakterlaydi.

6. Mikrodunyoning o'zgacha xususiyati tajribaning yangi nuqtai nazardan tushunishini taqozo qiladi. Mikrozarra ustida tajriba o'tkazish uning tajribagacha bo'lgan xolatini o'zgartirish demakdir. Zarraning tajribagacha to'lqin funksiyasi tajribadan keyingi to'lqin funksiyasida mutlaqo farq qiladi.

### Shredinger tenglamasining elektronning bir o'lchamli potentsial chuqurligidagi xarakatiga tadbiqu

Shredinger tenglamasini atom molekulalarining tuzilishini o'rganishga tadbiqu etilganda uning echimi juda ham murakkab bo'lib, ko'p qiyinchiliklarga duch keladi. Shuning uchun biz masalani soddaroq holicha, ya'ni potentsial chuqurligida bir tomonga qarab qarab xarakatlanayotgan elektron misolida qarab chiqamiz.

Elektron x uni bo'yicha faqat xq0 va xqa oralig'ida harakat qiladi.




Bir o'lchamli potentsial o'ra (yashik, quti)

Potentsial qutida x ning qiymati o'zgarishi bilan uning potentsial energiyasi U quyidagicha o'zgarishi mumkin:

1.  $-\infty < x < 0$   $U_1$  q  $\infty$
2.  $0 \leq x \leq a$   $U_2$  q  $0$
3.  $a < x < \infty$   $U_3$  q  $\infty$

Demak, shu yashikdan tashqari zarraning potentsial energiyasi cheksiz katta qiymatga ega bo'lar ekan. Ya'ni zarracha  $0 < x < a$  oralig'idan chiqish mumkin emas (shu oraliqdan chiqish uchun cheksiz miqdorda energiya kerak bo'ladi).



Mazkur potentsial o'rada klassik zarraning harakatini ko'raylik. Bu oraliqda zarraga hech qanday tashqi kuch ta'sir qilmaydi. Energiyasi  $U_0$  dan kichik bo'lgan har qanday ixtiyoriy qiymatga ega bo'lishi mumkin. Natijada u potentsial chuqurlikdan chiqib keta olmaydi.



Demak, zarra potentsial quti devoriga etganda qaytadi, so'ngra temkari yo'nalishda qaytadi. Shunday qilib, klassik fizika qonunlariga binoan zarra potentsial quti tashqarisida bo'la olmaydi va uni quti ichidagi nuqtada uchratish ehtimolligi bir hil bo'ladi.

Kvant mexanikaga binoan zarraning potentsial qutidagi xarakati butunlay boshqacha ro'y beradi.

Faqat X o'qi bo'yicha potentsial qutida harakat qilayotgan elektron uchun Shredinger tenglamasini yozsak,

$$-\hbar^2 \frac{\partial^2 \Psi}{dx^2} = E \Psi$$

Bu tenglamani echish uchun shu tenglamani qanoatlantiradigan funktsiyani va energiya E ning qiymatini topish kerak.

(8) tenglamani  $\Psi = A \sin(n\pi x/a)$  bo'lgan funktsiyani qanoatlantiradi. Bu tenglamada n q 1, 2, 3, ... A - doimiy son.

Shu  $\Psi$  funktsiya (9) X bo'yicha 2 marta differentsialab, (8) tenglamaning chap tomoniga olib borib qo'ysak, quyidagi ifodani olamiz:

$$-\hbar^2 \frac{\partial^2}{dx^2} (A \sin(n\pi x/a)) = E A \sin(n\pi x/a)$$

Bu ifoda o'z navbatida  $E = \frac{\hbar^2 n^2 \pi^2}{2ma^2} A \sin(n\pi x/a)$  ga teng.

$$E = \frac{\hbar^2 n^2 \pi^2}{2ma^2} A \sin(n\pi x/a)$$

Shu tenglamada energiya E ning qiymatini topsak  $E = \frac{\hbar^2 n^2 \pi^2}{2ma^2}$  bo'ladi (10).

Demak, biz (8) tenglamani qanoatlantiradigan  $\Psi$  funktsiyani va energiyaning qiymatini topdik, ya'ni 1 o'lchamli potentsial qutida harakat qilayotgan elektron uchun Shredinger tenglamasini echdik.

$$n = 1 \text{ da } E_1 = \frac{\hbar^2 \pi^2}{2ma^2};$$

$$n = 2 \text{ da } E_2 = 4 E_1; \quad n = 3 \text{ da } E_3 = 9 E_1$$

(10) tenglamadan ko'rinib turibdiki, kvant mehanika qonunlariga bo'ysunadigan zarraning energiyasi har qanday songa teng bo'lmasdan faqat qator aniq qiymatlarga teng bo'lar ekan, chunki n ma'lum bir butun sonlarni qabul qiladi, n ning butun sonlarni qabul qilishi  $\Psi$  funktsiyani potentsial yashikning (qutining) chekkalarida x q 0 va x q a da 0 ga teng bo'lishidan kelib chiqadi.

Shunday qilib, kvant mexanika atom va molekullardagi elektronlardagi diskret energetik pogonlarda (bunday energetik pogonlar borligi ularning spektorlarni o'rganish orqali ham o'rganilgan edi) joylashganligini va energiyaning qiymatini nazariy yo'l bilan aniqlash mumkinligini tushuntirib beradi.

Agar (10) tenglamadagi n ning son qiymatlarini (1, 2, 3, ...) qo'ysak, ularga mos kelgan energetik pogonlarning qiymatini olamiz.



Birgina X o'qi bo'ylab harakat qilayotgan zarraning xarakatini (9) tenglama bilan bir qatorda quyidagi bilan ham ifodalasa bo'ladi.

$$(11) \quad \psi = A \sin(2\pi x / \lambda)$$

(9) va (11) tenglamalardan

$$n\pi x / a = 2\pi x / \lambda$$

bundan  $\lambda = 2a/n$  ni aniqlaymiz.

1 potentsial qutida harakat qilayotgan zarraning to'liq uzunligi  $n=1,2,3,\dots$  bo'lganda  $\lambda = 2a/n; 2a/1; 2a/3, \dots$  bo'ladi  $n$  va  $\lambda$  ning shu qiymatlariga mos kelgan  $\psi$  va  $\psi^2$  funktsiyalarning grafik ko'rinishi rasmda ko'rsatilgan:

(3) tenglamada  $12 G' r_{12}$  ifodaning bo'lishi o'zgaruvchilarni ajratish imkoniyati yo'qligini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida tenglamani aniq echib bo'lmaslikka olib keladi. Bunday hollarda (3) tenglama tahminiy echiladi. Tahminiy echishning usullari ko'p. Shundan eng oddiy (anchoq bo'lsa ham) nolinchiy yaqinlashishidir. Bu usulda elektronlararo ta'sirni hisobga olinmaydi ya'ni

$$(4) \quad 12 G' r_{12} \approx 0$$

Bunda elementlar bir – biriga bog'liq bo'lmaydi va sistemaning (turkumning) to'liq energiyasi alohida olingan elektronlar energiyalariga teng bo'ladi.

$$(5) \quad E = E_1 + E_2$$

Sistemaning to'liq funktsiyasi esa 1 va 2 elektron to'liq funktsiyalarining ko'paytmasiga teng. Chunki ehtimollik nazariyasiga binoan bir – biriga bog'liq bo'lmagan 2 elektronning bir vaqtning o'zida fazoning 2 nuqtasida bo'lish ehtimolliklarining ko'paytmasiga teng.

$$(6) \quad \psi = \psi_1 \psi_2$$

(4) dagi shart bajarilganda (5) va (6) ni (3) ga olib borib qo'ysak, (3) tenglama ikkita bir – biriga bog'liq bo'lmagan bir elektronli sistemaning tenglamasiga aylanadi:

$$\Delta_1^2 \psi_1 + Q_1 \psi_1 = E_1 \psi_1$$

$$\Delta_2^2 \psi_2 + Q_2 \psi_2 = E_2 \psi_2$$

$\psi_1$  va  $\psi_2$  bir elektronli funktsiyalar (vodorodga o'xshagan atomlar xususiy funktsiyalari). Nolinchiy tahminlashda atomning to'liq funktsiyasi bir elektronli to'liq funktsiyalarining ko'paytmasiga, atomning energiyasi esa bir elektronli energiyalarning yig'indisiga teng bo'lar ekan.

(5) formula bo'yicha geliy atomining asosiy xolati uchun energiyani hisoblasak

$$E(\text{He}) = E_1 + E_2 = 2E_{1s}$$

### Muxokama uchun savollar:

1. Shredinger tenglamasi qanday keltirilib chiqarilishi mumkin ?
2. Laplos operatori nimani bildiradi ?
3. Gamilton operatorining manosi qanday ?

## 5-mavzu: KVANT MEXANIKANING MATEMATIK APPARATI

### REJA :

1. Operatorlar tushunchasi va operatorlar ustida bajariladigan amallar
2. Operator ko'paytmasining funktsiyaga ta'siri.
3. Operatorlarning xususiy funktsiyalari va xususiy qiymatlari

Klassik mexanika qonunlarini ifodalash uchun Isaak Nyuton yangi matematik apparat - differentsial va integral xisobni kashf qilgan va ishlab chiqqan edi. Kvant mexanika masallarini hal qilish uchun esa boshqa matematik aparat - operatorlar algebrasidan foydalaniladi.

Operator – matematik amal bo'lib, uning yordamida berilgan  $\psi$  funktsiya yangi -  $f$  funktsiyasi bilan taqqoslanadi. Buning uchun mazkur operator bilan berilgan  $\psi$  funktsiyaga tasir qilish natijasida yangi funktsiya  $f$  kelib chiqadi:  $A\psi$  q  $f$

$A$  – operator bo'lib, uni “ qalpoqcha” ishorali xarf bilan belgilanadi. Masalan,  $X^2$  funktsiyasiga differentsiallashtiruvchi operatori bilan tasir qilsak 2 funktsiyasini olamiz:

$$dG'dx (x^2) q 2 x$$

Ikkinchi misol : Aq dG'dx operatorini  $\psi(x)$  q  $\sin x$  funktsiyaga ta'sirini ko'raylik:

$$A \psi(x) q dG'dx \sin x q \cos x$$

ya'ni  $\psi(x)$  q  $\sin x$  funktsiyasi differentsiallashtiruvchi operatori yordamida  $\cos x$  ga o'tadi.

Operatorlar faqat funktsiyaga ta'sir qiladi. Doimiy kattaliklarga operator ta'sir etmaydi. Lekin operatorlar har qanday funktsiyaga ham ta'sir qilavermaydi. Funktsiya shu operator ta'siriga uchray oladigan bo'lishi kerak. Masalan, agar funktsiya differentsiallashtirilmagan bo'lsa, differentsiallashtiruvchi amalini tadbiiq qilib bo'lmaydi. Shuning uchun operatorni berayotib u ta'sir filayotgan funktsiyani ham ko'rsatish kerak.

### Operator ko'paytmasining funktsiyaga ta'siri

Agar ikkita  $A$  va  $V$  operatorlari bo'lsa, ularning ko'paytmasi  $AV$  funktsiyaga quyidagi qoidaga binoan: oldin  $f$  ga  $V$  operatori ta'sir etib yangi  $f_1$  funktsiyani hosil qiladi., so'ngra  $f$  ga  $A$  operatori ta'sir etib, ikkinchi yangi  $f_2$  ga funktsiyani hosil qiladi.

Masalan:  $AqG'dx; Vqx$ , Shu ikki operator ko'paytmasining funktsiyaga ta'siri quyidagicha:

$$AV f q dG'dx(x f)qfQx dfG'dx$$

A, V ning ta'siri, umumiy holda, AV ning ta'siriga teng emas, lekin ba'zi hususiy xollarda teng bo'lishi ham mumkin. Ikkita bir hil operatorning ko'paytmasi  $A \cdot AqA^2$  ga teng bo'ladi.

Ikkita operator yig'indisining yoki ayirmasining funktsiyaga ta'siri quyidagicha bo'ladi:

$$(A \underline{Q} V) f (x)qA f (x)Q V f (x)$$

Har qanday funktsiyaga ko'paytirilayotgan 0 ham operator, chunki u funktsiyani 0 ga aylantiradi.

Agar  $AVqVA$  (yoki  $AV - VAq0$ ) bo'lsa, u xolda A va V operatorlari **komutativ operatorlar** deb ataladi. Agar  $AV \neq VA$  bo'lsa, A va V operatorlari **nokommutativ operatorlar** deb ataladi.

$AV - VA$  q  $\{A, V\}$  ayirmasini A va V operatorlarining kommutatori deb ataladi.

### Operatorlarning xossalari

Kvant mexanikada ishlatiladigan operatorlar ma'lum xossalarga ega bo'lishi kerak. Chizikli o'z - o'ziga qo'shma (ermit) operatorlari (lineyno'e somosopryajenno'e (ermitovo'e operatoro'))

(Kvant mexanikada ma'lum sinfga mansub bo'lgan operatorlar ishlatiladi, xolos. Bu operatorlar chizikli o'z - o'ziga qo'shma operatorlar deb ataladi.)

Operatorning funktsiyalar yig'indisiga ta'siri natijasi uniing har bir funktsiyaga alohida ta'siri natijalarining yig'indisiga teng bo'lsa, bunday operator chizikli operator deyiladi.

$$L (C_1 f_1 QC_2 f_2)q C_1 L f_1 Q C_2 L f_2 \quad (1)$$

$C_1$  va  $C_2$  - o'zgarmas sonlar;  $f_1$  va  $f_2$  - operator L ta'sir qilishi (operator opredelen) mumkin bo'lgan har qanday funktsiyalar.

Masalan:

1) darajaga ko'tarish operatori  $Aq ( )^2$  chizikli emas

$$(f_1 Q f_2)^2 \neq f_1 Q f_2^2 \text{ va } (s_1 f_1)^2 \neq s_1 f_1^2$$

2) integrallash operatori  $Aq \int ( ) dx$  chizikli, chunki

$$\int (s_1 f_1 Q s_2 f_2) dx q s_1 \int f_1 dx q s_2 \int f_2 dx$$

Operatorlar va ularning xususiy funktsiyalari haqiqiy (moddiy) yoki kompleks bo'lishi mumkin, ya'ni o'zida muhim son 1 ni (iq $\sqrt{-1}$ ) tutishi mumkin.

Lekin bizga ma'lumki, fizik kattaliklar moddiy bo'lishi kerak. Bunday fizik kattaliklarga hususiy qiymati aniq son bo'lgan operatorlar to'g'ri kelishi kerak. Mana shu talab operatorlarga qo'shimcha shart qo'yadi. Ya'ni ular o'z - o'ziga qo'shma (somosopryajenno'y) yoki ermit bo'lishi kerak.

L operatori ermit bo'lishi uchun quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$\int f_1^* (x) (L f_2(x)) dx q \int f_2(x) (L f_1(x)) dx \quad (2)$$

(2) tenglamada birdaniga operatorga kompleks qo'shma (\*) belgini qo'shib yozish bilan birga  $f_1$  va  $f_2$  funktsiyalarning o'rinlari almashtirilayotir. Funktsiya va operator ( ) belgining bo'lishi ularda mavhum son I ning borligini ko'rsatib operator va funktsiya oldidagi ishoraning o'zgarishi zarurligini bildiradi: ya'ni i q -

$i_1 f^* q - \int$  va hakazo. Masalan, operatr d G'dx o'z -o'ziga qo'shma (ermit) emas: Agrumeti bir hil X bo'lgan 2 ta funktsiya berilgan bo'lsin:  $f_1(x)$  va  $f_1(x)$  Shu ikki funktsiya ( $x_1$  va  $x_2$ ) oraliqda o'zgarayotgan bo'lsin. Chegara qiymatlarda  $f_1(x_1)$  q  $f_2(x_1)$  q  $f_1(x_2)$  q  $f_{12}(x_2)$  q0 sharti bajariladigan bo'lsa, bu xolda bu quyidagi ikki integralning o'zaro tengligini isbotlash kerak.

$$J_1 q \int f_1^* dG' dx f_2 dx; J_2 q \int f_2^* dG' dx f_1 dx;$$

Agar  $J_1$  q  $J_2$  bo'lmasa dG'dx operatori ermit bo'lmaydi.  $J_2$  ni bo'laklab ntegralalash  $\int u dv$  q  $uv - \int v du$  qoidasiga binoan integrallaymiz ( $f_2$  qu;  $f_1^*$  q v; dG'dx  $f_2 dG'dx$  q du deb belgilaymiz:

$$J_2 = \int_{x_1}^{x_2} f_2 d/dx f_1^* dx = \int_{x_1}^{x_2} f_2 f_1^* - \int_{x_1}^{x_2} f_1^* d/dx f_2 dx f_2 f_1 \int_{x_1}^{x_2} = 0 \text{ bo'lgani uchun}$$

$J_1$  va  $J_2$  integrallari o'zaro ishoralarim bilan farq qilayapti  $J_1 \neq J_2$  shuning uchun dG'dx operatori ermit emas.

### Operatorning xususiy funktsiyalari va qiymatlari

Nolga aynan teng bo'lmagan funktsiyaga t'asir etganda ba'zi hollarda yangi funktsiya hosil bo'lish o'rniga dastlabki funktsiyaning o'zi o'zgarimasdan qolishi mumkin. Farq shundaki u biron o'zgarimas songa ko'paytirilgan bo'ladi. Masalan: u  $q e^a f$  funktsiyaga L qd G'dx operatorining ta'sirini ko'raylik:

$$d G' dx e^{ax} q a e^{ax}$$

Bu erda a -o'zgarimas son. Umumiy holda

$$L f q L f \quad (1)$$

Bu erda L - operator. L q L operatorning hususiy qiymati deyilib, u f funktsiya va operator hiligi bog'liq bo'lgan son. (3) tenglamani qanoatlantiruvchi f funktsiyasi L operatorining hususiy funktsiyasi deyiladi.

Har qanday funktsiya va har qanday qiymatlar uchun ham (3) tenglik bajarilavermaydi. Masalan: L qdG'dx operatori u  $q e^{ax}$  funktsiyaga ta'sir qilayotganda L q 2 q j hol uchungina(3) shart bajariladi.  $u q e^x$  funktsiya esa ning qanday qiymatga ega bo'lishidan qat'iy nazar (3) tenglamani qanoatlantirmaydi. Chunki dG'dx operator ta'sirida butunlay boshqacha yangi funktsiya xosil bo'ladi: u q  $x e^x$

Ba'zi hollarda L ning bitta emas bir nechta qiymtlari ham (3) ni qanoatlantiradi. L ning har qanday qiymatlari uchun yuqoridagi tenglama (3) nolga teng bo'lmagan echimga ega bo'lsa, u holda xususiy qiymatlarning to'plami (majmuasi) ni hususiy qiymatlarning operatori deb ataladi.

### O'z - o'ziga qo'shma operator to'g'risidagi postulat

Klassik fizikadagi har qanday dinamik o'zgaruvchiga(koordinata, impuls, energiya, ...) kvant mehanikada chiziqli o'z- o'ziga qshma operator to'g'ri keladi. Masalan:  $E \rightarrow N$

$$\text{Impulsga } R_x \rightarrow i\hbar \partial G' \partial x$$

Operator deganda matematik amal tushunilib, uning ta'siida x,y,z, ... o'zgaruvchilarga ega bo'lgan biron bir funktsiyadan, huddi shu o'zgaruvchiga bog'liq bo'lgan boshqa funktsiya keltirilib chiqariladi.

6. Holatlarning superpozitsiya printsiipi.

Bu printsip operatorning chiziqli bo'lish hususiyatidan kelib chiqadi. Agar zarracha  $\psi_1$  va  $\psi_2$  holatlarda joylashishi mumkin bo'lsa, u holda ushbu zarracha

$$\psi = c_1 \psi_1 + c_2 \psi_2$$

holatda ham joylashishi ham mumkin. Bu erda  $s_1$  va  $s_2$  – doimiy sonlar.  $\psi_1$  va  $\psi_2$  va to'liq funktsiyasiga ega bo'lgan holatlarning chiziqli kombinatsiyasidan  $\psi$  holat keltirilib chiqariladi. Xyukkelning MO usulini o'rganayotganimizda ushbu mavzuda to'xtab o'tamiz.

### **Ko'p elektronli atomlar. geliy atomi uchun Shredinger tenglamasi. Nolinchi yaqinlashish usuli**

**Dars maqsadi:** Talabalarga ko'p elektronli atomlar, masalan, geliy atomi uchun Shredinger tenglamasining tadbqiqi hamda to'liq funktsiyasi va unga muvofiq keluvchi energiyani hisoblashning nolinchi yaqinlashish usuli haqida tushuncha berishdan iborat.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Ko'p elektronli atomlar, masalan, geliy atomi uchun Shredinger tenglamasini tadbqiqi eta oladi.
2. To'liq funktsiyasi va unga muvofiq keluvchi energiyani hisoblashning nolinchi yaqinlashish usulini tushunadi.

Vodoroddan boshqa hamma elementlarning atomi ko'p elektronli atom deyiladi. Ularning fizik va kimyoviy a hossalari elektronlarning yadro bilan tortilib turish energiyasiga va elektorn qobig'larning tuzilishiga bog'liq . Ko'p elektronli atomlarda elektron bulutning qanday tarqalganligini, uning energiyasi va boshqa fizik xarakteristikalarining Shredinger tenglamasini echib aniqlash mumkin. Lekin ko'p elektronli sistemalar (turkumlar) uchun Shredinger tenglamasini aniq echib bo'lmaydi (lekin tajribaga yaqin, mos kelgan natijalar olishi mumkin)

Kup elektronli atomlarning eng oddiyi bo'lgan geliyning Ne tuzilishini qarab chiqamiz. Geliydagi elektronlarning bulutining zichligi va hossalri  $\psi$  to'liq funktsiyasi oqali aniqlanadi.  $\Psi$  funktsiyasini va atomning to'liq energiyasini Shredinger tenglamasini echish orqali topish mumkin. Ne atomida 2 ta elektron bo'lganligi uchun Shredinger tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$(1) \Delta^2 \psi + Q \Delta^2 \psi + Q 8\pi^2 mG'h^2 (E-U) \psi = 0$$

Laplas operatorlaridagi 1 va 2 simvollar  $\psi$  funktsiyasini differentsiallashni birinchi va ikkinchi elektronlarning koordinatalari bo'yicha bajarilganligini ko'rsatadi. Potentsial energiya

$$(2) U = -\frac{Z^2 e^2}{4\pi\epsilon_0 r_1} - \frac{Z^2 e^2}{4\pi\epsilon_0 r_2} + \frac{e^2}{4\pi\epsilon_0 r_{12}}$$

bunda birinchi va ikkinchi ifoda 1 va 2 elektronlarning yadroga tortilish energiyasi, uchinchi ifoda esa elektronlarning o'zaro itarilish energiyasidir. (2) ni (1) tenglamaga qo'ysak

$$(3) \Delta_1^2 \psi Q \Delta_2^2 \psi Q 8\pi^2 m G' h^2 q EQz l^2 G' r_2 - l^2 G' r_{12} \psi q 0$$

(3) tenglamada  $l^2 G' r_{12}$  ifodaning bo'lishi o'zgaruvchanlarni ajratish imkoniyati yo'qligini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida tenglamani aniq echib bo'lmazlikka olib keladi. Bunday hollarda (3) tenglama tahminiy echiladi. Tahminiy echishining usullari ko'p. Shundan eng oddiyisi (ancha noaniq bo'lsa ham) nolinchiy yaqinlashishdir. Bu usulda elektronlararo tasirni hisobga olinmaydi, ya'ni

$$(4) L^2 G' r_{12} q 0$$

Bunda elektronlar bir – biriga bog'liq bo'lmaydi va sistemaning (to'rkumning) to'liq energiyasi alohida olingan elektronlar energiyalarining yig'indisiga teng bo'ladi:

$$(5) E q E_1 Q E_2$$

Sistemaning to'liq funktsiyasi esa 1 va 2 elektronlar to'lqin funktsiyasining ko'paytmasiga teng. Chunki ehtimollik nazariyasiga binoan bir – biriga bo'g'liq bo'lmagan bir elektronli sistemaning tenglamasiga aylanadi:

$$\Delta_1^2 \psi_1 Q 8\pi^2 m G' h^2 q (E_1 Q l^2 G' r_1) \psi_1 q 0$$

$$\Delta_2^2 \psi_2 Q 8\pi^2 m G' h^2 q (E_2 Q l^2 G' r_2) \psi_2 q 0$$

$\psi_1$  va  $\psi_2$  bir elektronli to'lqin funktsiyalar (vodorodga o'xshash atomlarning hususiy funktsiyalari). Nolinchiy tahminlashda atomning to'lqin funktsiyasi bir elektronli to'lqin funktsiyalarning ko'paytmasiga, atomning energiyasi esa bir elektronli energiyalarning yig'indisiga teng bo'lar ekan.

(5) formula bo'yicha geliy atomining asosiy holati uchun energiyani hisoblasak

$$E(\text{He}) q E_1 Q E_2 q 2E_{1s}$$

$2E_{1s}$  vodorodsimon atomning ( $\text{Ne}^Q$  - ioni) asosiy holatdagi elektronning energiyasi.

Shu yo'l bilan Ne atomi uchun hisoblangan energiyaning qiymati tajribada topilganidan anchagina farq qiladi. Bunga sabab elektronlarning o'zaro itarilish kuchini hisobga olinmaganligidir.

Hozirgi vaqtda masalani tahminiy echishning ko'pgina metodlari ishlab chiqarilgan. Shulardan eng anig'i Angliyalik olim Xartri va sovet fizigi Fok tomonidan taklif etilgan metoddir.

### Muxokama uchun savollar:

1. Ko'p elektronli atomlarning energiyasini aniqlash usullari.
2. Nolinchiy yaqinlashishi usuli.
3. Xartri – Fok usuli

## 6-mavzu: KOVALENT BOG'NING KVANT MEHANIK NAZARIYASI

Ajratilgan vaqt-2 soat

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** kovalent bog', nolinchi yaqinlashish, o'zgaruvchan parametrlar, variatsion usul, kvant mexanik nazariya Kulon integrali, almashinish integrali. qoplash integrali, simmetrik va antisimmetrik funktsiyalarining energiyasi.

### REJA:

1. Vodorod molekulasida hosil bo'lishida nolinchi yaqinlashishining o'zgaruvchan parametrlari.
2. Molekula hosil bo'lishini variatsion usulda asoslash.
3. Simmetrik va antisimmetrik funktsiyalarining energiyasi.

Kvant mexanikaning asosiy tenglamasi bo'lgan Shredinger tenglamasi kashf etilgandan keyin, ya'ni 1927 yilda Geytler va London vodorod molekulasidagi kimyoviy bog'ni kvant mexanikasi yordamida tushuntirdilar. Ularning bu ishi kimyoviy problemlarni kvant mexanika yordamida hal etishda dastlabki qadam bo'lib, kvant kimyoning keyingi rivojlanishida katta rol o'ynadi.

Nima uchun N atomlari alohida – alohida yurmasdan 2 tasi o'zaro qo'shib molekula hosil qiladi? Ular bir - birlari bilan qanday bog'langan? Bu savollarga javob berish uchun molekulaning to'liq energiyasini topishimiz kerak, chunki atomlarni bog'lab turadigan vosita energiyadir.

Molekula mikrozarralardan iborat sistema bo'lganligi uchun uning energiyasini Shredinger tenglamasi yordamida aniqlash mumkin:

$$-\hbar^2 \nabla^2 \psi + U(\mathbf{r}) \psi = E \psi \quad (1)$$

Demak, vazifa potentsial energiyasini topish va shu tenglamani qanoatlantiradigan to'liq funktsiyasini  $\psi$  ni tuzishdan iborat. So'ngra  $U$  va  $\psi$  larni (1) ga qo'yib  $E$  ni topishimiz mumkin.

Lekin Shredinger tenglamasini o'zaro ta'sirlashayotgan 3 ta zarracha uchun aniq echilgan. (N atomi,  $\text{Ne}^Q$  va  $\text{N}^Q_2$ ).

O'zaro ta'sirlashayotgan zarrachalarning soni 4 ta va undan ortiq bo'lsa (1) tenglamaning aniq echimi bo'lmaydi. Vodorod molekulasida 4 ta zarracha bo'lgani uchun Geytler va London bu molekula uchun Shredinger tenglamasiing tahminiy echimini topdilar.

Takribiy echish yo'llaridan biri nolinchi yaqinlashishidir. Bu yaqinlashishida  $\text{N}_2$  ni o'zaro ta'sir qilmayotgan yonma – yon turgan 2 ta atomdan iborat deb faraz qilinadi. Bunday molekulaning potentsial energiyasi alohida olingan 1 – chi va 2 -chi atomlar potentsial energiyalarning yig'indisiga teng:

$$(2) U_{\text{H}_2} \text{ q } \phi_a(1) \phi_v(2)$$

Ma'lumki,  $\psi$  funktsiyasi emas, balki uning kvadrati fizik ma'noga ega. Shuning chun  $\psi_{\text{N}_2}^2$  bir vaqtda 1 – elektronni a yadrosi yaqinida, 2 – elektronni esa v yadrosi yaqinida bo'lish ehtimolligini ko'rsatadi.



(2) va (3) ni (1) ga qo'yib, tenglamani echsak, nolinchii yaqinlashishidagi vodorod molekulasiining energiyasini aniqlashimiz mumkin:

$$(4) E_{N_2} q - 4\pi^2 m e^4 G^2 h^2$$

$m$  – elektronning massasi,  $e$  – zaryadi,  $h$  – Plank doimiysi.

1 va 2 elektronning bir – biridan farqi bo'lmanagani uchun ularning o'rinlarini almashtiramiz, ya'ni 1 – elektron  $v$  yadro, 2- elektron esa  $a$  yadro atrofida aylanib yuribdi deb hisoblaymiz. Shu g'olat uchun molekulaning to'qin funktsiyasi quytdagicha bo'ladi:

$$(5) \psi_{N_2} q - \varphi_v(1) \varphi_a(2)$$

Bu funktsiya ham molekulaning funktsiyasi bo'la oladi.  $G' \psi_{N_2} G'^2$  esa bir vaqtning o'zida 1- elektronning  $v$  yadrosi, 2- elektronning  $a$  yadrosi yaqinida bo'lishi ehtimoligini ko'rsatadi. (5) funktsiyaga mos kelgan energiyaning qiymati

$$(6) E_{N_2} q - 4\pi^2 m e^4 G^2 h^2$$

(4) va (6) tenglamalarda ko'rinib turibdiki, ayniy holatlari uchun (3) va (5) funktsiyalar uchun energiyaning qiymati bir hil. 2 ta xolatga bir hil energiya to'g'ri kelsa, bkn day holatlarni ayniy (vrojdennie sostochniya) xolatlar deyiladi.

Kvant mehanikasi ko'rsatadiki, ayniy xolatlar uchun (3) va (5) funktsiyalardan tashqari shu funktsiyalarning chiziqli kombinatsiyalari ham molekulaning to'lqin funktsiyasi bo'la oladi

$$(6) \psi_{N_2} q s_1 \varphi_a(1) \varphi_v(2) Q s_2 \varphi_v(1) \varphi_a(2)$$

$s_1$  va  $s_2$  - o'zgaruvchan parametrlar bo'lib,  $N_2$  uchun  $s_1 q \pm s_2$  bo'ladi. Demak,  $s_1$  va  $s_2$  ning qiymatiga qarab to'lqin qunktsiyasi 2 hil bo'lishi mumkin. Agar  $s_1 q \pm s_2$  bo'lsa, u holda (7) tenglama quyidagicha bo'ladi:

$$(7) \psi_Q(1,2) q c_1 \varphi_a(1) \varphi_v(2) - c_1 \varphi_v(1) \varphi_a q [ \varphi_a(1) \varphi_v(2) Q \varphi_v(1) \varphi_v(2) ]$$

Agar  $s_1 q .s_2$  bo'lsa, u holda

$$(8) \psi_{-}(1,2) q s_1 [ \varphi_a(1) \varphi_v(2) - \varphi_v(1) \varphi_a(2) ]$$

(9) tenglamadan ko'rinib turibdiki, elektronlarning o'rinlarini almashtirib qo'yilsa, funktsiya ishorasi o'zgarmaydi, ya'ni

$$\psi_Q(1,2) q \psi_Q(2,1)$$

Aksincha, huddi shunday o'rin almashtirilgan vaqtda (9) tenglamadan ko'rinib turibdiki, funktsiyaning ishorasi o'zgaradi, ya'ni

$$\psi_{-}(1,2) q .\psi_{-}(2,1)$$

$\psi_Q(1,2)$ ni simetrik to'liqin funktsiyasi deyiladi.

$\psi_{-}(2)$ ni antisimmetrik funktsiyasi deyiladi. Keyinga yaqinlashishi (nolinchi emas).

Endi  $N_2$  molekulasidagi potentsal energiyani hisoblaymiz, ya'ni turli atomlarga tegishli elektronlar va yadrolarning o'zaro ta'sirini hisobga olaylik. U holda 4 ta zarrachadan iborat bo'lgan  $N_2$  ning potentsial energiyasi 6 ta qismdan iborat bo'ladi:

$$(10) U = \frac{1}{2} G' a_1 - \frac{1}{2} G' r_{v2} - \frac{1}{2} G' r_{a2} - \frac{1}{2} G' r_{v1} + \frac{1}{2} G' r_{12} + \frac{1}{2} G' R_{av}$$

–  $\frac{1}{2} G' r_{a1}$  – birinchi elektronning a yadrosi yaqinida bo'lgandagi potentsial energiyasi;

–  $\frac{1}{2} G' r_{v2}$  – ikkinchi elektronning v yadrosi bo'lgandagi potentsial energiyasi.

(10) tenglamaning qolgan 4 ta xadi elektron va yadrolarning o'zaro ta'sirlashgandagi potentsial energiyasini tashkil qiladi. (10) tenglamadagi energiyaning 4 tasi

tortishish va 2 tasi itarilish potentsial energiyasidir. Bundan ko'rinib turibdiki, bunday holatda sistemaning potentsial energiyasi nolinchi yaqinlashishga qaraganda kichikroq qiymatga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida sistemaning to'liq energiyasi – E ning kamayishiga olib keladi.

Zarrachaning o'zaro ta'sirini hisobga olganimizda bunday sistemalar uchun Shredinger tenglamasini to'liq qanoatlantiradigan  $\psi$  – funktsiyasini topish ancha qiyin. Shuning uchun haqiqiy  $\psi_0$  va  $E_0$  ga yaqin bo'lgan  $\psi$  va E larni tarkibi topiladi Tarkibiy hisoblash metodlaridan biri variatsion usul bo'lib, uning printsiplari quyidagicha:

Shredinger tenglamasini Gamilton operatori orqali yozsak:

$$(11) N\psi = E\psi$$

Shu tenglamani 2 tomonini  $\psi$  ga ko'paytiramiz:

$$(12) \psi N\psi = E\psi^2$$

Bundan

$$(12) E = \frac{\int \psi N\psi}{\int \psi^2}$$

Agar  $\psi$  funktsiyaning ifodasi ma'lum bo'lganda edi, uShredinger tenglamasining echimi bo'lib, (13) tenglama E ning qiymatini bergan bo'lar edi (fazoning hoholagan nuqtasi uchun). Lekin  $\psi$  funktsiyaning aniq ifodasi ma'lum emas. Bu noaniqliklarni butun fazo bo'ylab ( $-\infty$  dan  $Q$   $\infty$  gacha) integrallash natijasida yo'qotish mumkin:

$$(13) E = \int \psi H\psi dv / \int \psi^2 dv$$

bu erda  $dv$  - hajm elementi

$\psi$  – funktsiya normallanuvchi bo'lgani uchun, (14) tenglamaning maxraji 1 ga teng bo'ladi, ya'ni  $\int \psi^2 dv = 1$ , u holda

$$(14) E \int \psi H \psi dv$$

Agar to'liq funktsiyasiga yaqin bo'lgan  $\psi$  - funktsiyasini tuza olsak, u holda (14) va (15) tenglamalar orqali molekulaning asosiy xarakteri stkasi bo'lgan elektronni, yuqorida aytganimizdek, variatsion, usul bilan tanlanadi.

Variatsion usulda tanlangan  $\psi$  -funktsiya orqali (14) yoki (15) tenglama bilan hisoblanadigan energiya  $E$  ning qiymati qanchalik kiyachik bo'lsa, bu energiya ham shunchalik haqiqiy eneriyaning  $E_0$  ning qiymatiga yaqin bo'ladi va tanlangan to'liq funktsiyasi esa, haqiqiy funktsiyaga yaqin bo'ladi.

$$(1) E \int \psi H \psi dv = G \int \psi^2 dv$$

Formuladan foydalanamiz.

Atomlardagi molekula hosil bo'lganda ular o'z konfiguratsiyalarini ma'lum darajada saqlab turadi, atom orbitallardagi elektronlarning spinlari juftlanishi hisobiga atomlar o'zaro bo'g'lanib keladi. Molekulaning to'liq funktsiyasi alohida, indivudal atomlarning to'liq funktsiyalarining ko'paytmasi sifatida tuziladi. Bu qoida superpozitsiya printsipi deyiladi. Superpozitsiya printsipiga ko'ra, molekulaning real holatini ifodalovchi to'liq funktsiyasi alohida ayniy holatlar to'liq funktsiyalarining chiziqli kombinatsiya sifatida tuziladi:

$$(2) \psi = c_1 \phi_a + c_2 \phi_b$$

Ushbu tenglamadagi  $s_1, s_2$  har bir holatining molekula umumiy holatiga qo'shgan hissasi ko'rsatuvchi o'zgaruvchan ko'effitsentlar bo'lib, vodorod molekulasiga uchun  $s_1 = \pm s_2$  bo'ladi. Ko'effitsentlar tanlashdagi birinchi qoida shundan iboratki, bu qiymatlar to'liq funktsiyaning normallanish shartiga muvofiq kelsin, ya'ni to'liq funktsiya  $\int \psi^2 dv = 1$  shartni qanoatlantirishi lozim. Demak,  $s_1$  va  $s_2$  ning qiymatiga qarab to'liq funktsiyasi 2 hil bo'lishi mumkin. Agar  $s_1 = \pm s_2$  bo'lsa,  $\psi_Q(1,2)$  (8 tenglama) bo'ladi.  $\psi_Q(1,2)$   $Q \psi_Q(2,1)$  simmetrik funktsiya.

Agar  $s_1 \neq \pm s_2$  bo'lsa,  $\psi_{(1,2)}$  (9 tenglama) ga teng bo'ladi.  $\psi_{(1,2)}$   $Q \psi_{(2,1)}$  antisimmetrik funktsiya.

Bu uchal tarkibiy bo'lgani uchun  $E$  ga yaqin bo'lgan energiyani molekulaning to'liq energiyasi deb qabul qilinadi.

Variatsion usuldan foydalanib, molekulaning real holatini ifodalovchi to'liq funktsiyasini alohida to'liq funktsiyalarining chiziqli kombinatsiyasi sifatida tuzib (2), (1) tenglamaga qo'yamiz va ko'p elektronli sistemalarning energiyasini hisoblab topamiz:

$$(3) \int (s_1 \phi_1 + c_2 \phi_2) N (s_1 \phi_1 + c_2 \phi_2) dv = G \int (s_1 \phi_1 + c_2 \phi_2)^2 dv = c_1^2 \int \phi_1 N \phi_1 dv + c_2^2 \int \phi_2 N \phi_2 dv + 2 c_1 c_2 \int \phi_1 N \phi_2 dv$$

(3) tenglamani soddalashtirish uchun belgilar kiritamiz:

Gamilton operatorini tutuvchi integrallarni  $\alpha$  va  $\beta$  bilan, tutamaydganlarni  $S$  bilan belgilab, belgilar pastiga integral ostida qanday funktsiyalar turganinni ko'rsatamiz:

$$\int \phi_1^2 dv = 1; \int \phi_2^2 dv = 1 - \text{normallanuvchi funktsiya};$$

$\int \varphi_1 \varphi_2 dv$  qS<sub>12</sub>;  $\int \varphi_1 \varphi_2 dv$  qS<sub>21</sub>; -qoplash integrallari;  
 $\int \varphi_1 N \varphi_1 dv$  qα<sub>1</sub>;  $\int \varphi_2 N \varphi_2 dv$  qα<sub>2</sub>; -kulon integrallari;  
 $\int \varphi_1 N \varphi_2 dv$  qβ<sub>1</sub>;  $\int \varphi_2 N \varphi_1 dv$  qβ<sub>2</sub>; -almashinish integrallari.

Shu belgilarni (3) tenglamaga qo'ysak

$$(4) E q c_1^2 \alpha_1 Q c_1 c_2 \beta_1 Q c_1 c_2 \beta_2 Q_2 G' c_1^2 Q c_1 c_2 S_{12} Q s_2^2$$

α<sub>1</sub>q α<sub>2</sub>q α va S<sub>12</sub> S<sub>21</sub> bo'lgani uchun

$$(5) E q c_1^2 \alpha_1 Q 2c_1 c_2 \beta Q c_2^2 \alpha_2 G' c_1^2 Q 2c_1 c_2 S_{12} Q s_2^2$$

Energiyani (5) tenglama bo'yicha aniqlash uchun variatsion usuldan foydalanamiz. Bu usul bo'yicha c<sub>1</sub> va c<sub>2</sub> koifitsientlarini shunday tanlash kerakki, uni (8) simmetrik funktsiyaga qo'ygan vaqtdagi to'lqin funktsiya energiyaning minimal qiymatiga to'g'ri kelsin. Ekstramumlik shatriga binoan energiyaning c<sub>1</sub> va c<sub>2</sub> lar bo'yicha olingan hosilasi nolga teng bo'lsagina, ya'ni  $\partial EG' / \partial s_1 q = 0$ ;  $\partial EG' / \partial s_2 q = 0$ ; bo'lganda energiya minimum bo'ladi.

(5) tenglamani c<sub>1</sub> va c<sub>2</sub> bo'yicha alohida differentsiallaymiz;

$$(\partial EG' / \partial s_1) s_2 q 2c_1 \alpha Q 2c_2 \beta - E(2c_1 Q 2c_2 S_{12}) q (\alpha - E) s_1 Q (\beta - E S_{12}) c_2 q = 0$$

$$(\partial EG' / \partial s_2) s_1 q 2c_2 \alpha Q 2c_1 \beta - (2c_2 Q 2c_1 S_{12}) q (\beta - E S_{12}) s_2 Q (\alpha - E) c_2 q = 0$$

**Kulon integrali, almashinish integrali va qoplash integrali. simmetrik va antisimmetrik funktsiyalarining energiyasi**

Kulon integrali (S) har bir elektronning o'z yadrosi bilan elektrostatik ta'sir energiyasini ko'rsatadi va  $C = \int \psi_1 H \psi_1 dv$  formulaga ko'ra xisoblanadi. (3) formulaga binoan Kulon integrali

$$\tilde{N} = \int \varphi_a(1) \varphi_b(2) H \varphi_a(1) \varphi_b(2) dv \text{ ga teng}$$

Demak, S ikkita atom elektronlarini o'zaro almashtirilmagan xolatdagi elektronlar energiyasini ifodalaydi. Kulon integrali molekula energiyasining 10 foizini tashkil qiladi. Shuning uchun 1-elektronning B yadrosiga, 2-elektronning A yadrosiga tortilishi vodorod molekulasi xosil bo'lishida asosiy omil bo'la olmaydi.

Almashinish yoki rezonans integrali (A) elektronlarning yadrolar orasida almashinishi bilan bog'liq bo'lgan ta'sir energiyasini xarakterlaydi. Almashinish integrali A quyidagicha formuladan topiladi:

$$A = \int \psi_1 H \psi_2 dv \text{ yoki } A = \int \varphi_a(1) \varphi_b(2) H \varphi_a(1) \varphi_b(2) dv$$

Bir laxzada a atomga tegishli elektron 2-laxzada v atomga tegishli bo'lib qoladi. 2-elektron xususida xam xuddi shunday deyish mumkin. Bunday almashinish elektronlarning bir-biridan farqi yo'qligi uchun sezilmaydi, lekin bu almashinish tufayli molekula barqaror bo'ladi. Bu energiya almashinish energiyasi deyiladi va u tortishish energiyasi bo'lgani uchun ishorasi manfiy bo'ladi. Shuning uchun almashinish energiyasi tufayli molekulaning umumiy energiyasi kamayadi va u molekulaning barqarorligiga asosiy xissa qo'shadi.

Almashinish integrali elektronlarning bog'lanayotgan atomlar o'rtasida lokallanganligini, ularning ikkala yadro uchun xam umumiylikni aks ettiradi.

Qoplash integrali (S) elektron bulutlarining bir-birini qoplash natijasida sistema energiyasini qanchalik kamayishini ko'rsatadi. Qoplash integralining 1 ga teng bo'lishi, qoplashning maksimaligini ko'rsatadi. Sq0 bo'lsa, bu orbitallar bir-

birini qoplamayapti degan so'z. Qoplash sodir bo'lgan uning qoplash darajasigi qarab qoplash integralining qiymati 0-1 oraliqda o'zgaradi. Qoplash integrali

$$(11) S = \int \varphi_a(1)\varphi_b(2)H\varphi_a(1)\varphi_b(2)dv$$

Ushbu tenglamadan ikkala elektron yadroga xam tegishli ekanligi ko'rinib turibdi.

(7-,8-) tenglamalarda  $\beta = A < 0$ ;  $\alpha = C < 0$ ;  $S < 0-1$ , lekin  $|\alpha| > |\beta|$  bo'lgani uchun (7) tenglamada kasr surati manfiy, maxraji esa musbatga teng. Demak,  $C + A/1 + S^2 < 0$  va  $E_+ = 2E_0$  bo'ladi.

Antiparallel spinli elektronlar bir-biriga yaqinlashganda ular juftlashadi, ya'ni kimyoviy bog' xosil bo'ladi. Natijada sistemaning energiyasi aloxida olingan atomlarning energiyalari yig'indisidan kam bo'ladi.

To'lqin funktsiya assimetrik bo'lganda esa kasr surati musbat bo'lgani uchun  $|\alpha| > |\beta|$  va nisbat noldan katta bo'ladi.

Demak,  $\psi_Q$  funktsiyasi sistemaning barqaror xolatiga,  $\psi_+$  funktsiyasi esa beqaror xolatiga to'g'ri keladi.

Simmetrik funktsiya uchun:

$$(16) E_+ = 2E_0 + K + A/1 + S^2$$

Antisimmetrik funktsiya uchun:

$$(17) E_- = 2E_0 + K - A/1 - S^2$$

kelib chiqadi.

Bu erda:

$2E_0$  - normal xolatdagi ikkita H atomining energiyasi;

K - Kulon integrali bo'lib, xar bir elektronning o'z yadrosi bilan elektronlarning va yadrolarning o'zaro elektrostatik ta'sir energiyasini ko'rsatadi.

$$\alpha_1 = K = \int \varphi_1 H \varphi_1 dv; \quad \alpha_2 = K = \int \varphi_2 H \varphi_2 dv;$$

A - almashinish (obmenno'y) integrali bo'lib, elektronlarning yadro o'rtasida almashinish bilan bog'liq bo'lgan ta'sir energiyasini ko'rsatadi:

$$\beta_{11} = A = \int \varphi_1 H \varphi_2 dv; \quad \beta_{22} = A = \int \varphi_2 H \varphi_1 dv;$$

S - qoplash integrali (perekro'vanie) deyilib, elektron bulutlarning bir-birini qanchalik qoplash natijasida sistema energiyasini kamayishini ko'rsatadi:

$$S_{12} = \int \varphi_1 \varphi_2 dv; \quad S_{21} = \int \varphi_2 \varphi_1 dv;$$

(16) va (17) da  $K < 0$ ,  $A < 0$ ,  $S < 0$ , lekin  $G'KG' < G'AG'$  bo'lgani uchun

$$K + A/1 + S^2 < 0 \quad K - A/1 - S^2 > 0 \text{ bo'ladi.}$$

Shuning uchun (16) da  $E_Q < 2E_0$  (17) da  $E_Q > 2E_0$  bo'ladi.

Energiyaning normal xolidagi 2 ta vodorod atomining energiyasidan kichik bo'lgan qiymati molekulani xosil bo'lishiga olib keladi. Demak, O'q funktsiyasi sistemaning barqaror holatiga, O'q funktsiyasi esa, sistemaning beqaror holatiga to'g'ri kelar ekan. Nima uchun 1 va 2 holatlar vujudga keladi? Elektron spinga ega, shuning uchun  $E_{\min}$  ga mos kelgan masofa  $r_0$  kimyoviy bog' xosil qilgandagi atomlar orasidagi muvozanat oralig'i kimyoviy bog' hosil bo'lishida sistemaning energiyasi kamayadi. Masofa uzoq (atomlar orasidagi) bo'lganda tortishish kuchlari ta'sirida (manfiy potentsial energiya) atomlar yaqinlashadi va juda

yaqinlashganda itarilish kuchlari ta'sir qilib, energiya ortib ketadi va kimyoviy bog'  $E_{\min}$  qiymatiga ega bo'lganda  $r_0$  muvozanat masofadagini tashkil topadi.

Geytler va London yuqorida bayon qilingan usul yordamida vodorodning energiyasi va atomlar orasidagi muvozanatning muvozanat masofasi uchun quyidagi qiymatlarni oldilar.

$$E = 3.14\epsilon B; \quad r_0 = 0.869A^0$$

Tajribada esa  $E = 3.14\epsilon B; r_0 = 0.869A^0$  ekanligi aniqlangan. Geytler va London xisoblari tajribada aniqlanganda anchagina farq qilsa ham, lekin kimyoviy bog'ni kvant mexanik tushuntirishda va kimyo fanining keyingi rivojlanishida katta bosqich bo'ladi.

1960 yili Kolos va Rutan degan olimlar to'lqin funktsiyasi uchun 50 haddan iborat funktsiya tuzib, Geytler va London asosida  $N_2$  energiyasi va  $G^*G^*$  hisoblaganlarida tajribaga juda ham yaqin qiymatlarni oldilar.

#### Savollar:

1. Vodorod molekulasini hosil bo'lishini nolinchida yaqinlashish usulida Izoxlash
2. Variatsion usulning ho'llanilishi.
3. Kulon integrali. Almashinish integrali. Qoplash integrali
4. Assimetrik va simmetrik funktsiyalarning energiyasi nimaga teng va yadrolar orasidagi masofaga qanday bog'langan.

### 7-ma'ruza: MOLEKULYAR ORBITALLAR METODI. XYUKKEL METODI

#### REJA:

1. Bog'lovchi va bo'shashtiruvchi orbitallar;
2. Xyukkel metodi. r-bog'ning tartibi, r-elektron zichlik.
3. Molekulyar orbitallar energiyalarini xisoblash.
4. Variatsion usul.

MO larni ifodalaganda ularning qaysi AO asosida hosil bo'lganligini ko'rsatish uchun uning ifodasi yoniga AO ifodasi qo'shib yoziladi. Masalan,  $1S$  AO dan hosil bo'lgan bog'lovchi  $\delta MO$   $\delta 1S$  ko'rinishida, bo'shashtiruvchi esa  $\delta^*1S$  ko'rinishida yoziladi.

Ikki atomli gomoyadroli molekularlarning spektrlarini o'rganish natijasida ularning MO lari o'z energiyasiga qarab quyidagi qatorga joylashganligi aniqlangan.

$(\delta 1S) < (\delta^x 1S) < (\delta 2S) < (\delta^x 2S) < (\pi 2p_x) < (\pi 2p_y = \pi 2p_z) < (\pi^* 2p_y = \pi^* 2p_z) < (\pi^* 2p_x)$   
 $\pi 2p_x$  va  $\pi 2p_y$  orbitallardagi elektronlari bir-biriga juda yaqin. Ba'zi molekularlarda esa, (masalan,  $B_2$ ,  $C_2$ ,  $N_2$ )  $\pi^x 2p_x$  pog'ona  $\pi 2p_y$  pog'onadan yuqorida joylashgan. Bunga sabab elementga xos bo'lgan Mendeleev sonining (tartib nomerining) ortishi bilan  $2S$  – va  $2p_x$  – elektronlar energiyasining o'zgarish qonuniyatidir. B, C, va N atomlaridagi  $2S$  va  $2p_x$  elektronlarning energiyalari bir-biriga yaqin. Shuning uchun  $\pi^* 2p_x$  orbitalning to'lqin funktsiyasiga  $2S$  – atom orbitalning ham anchagina

qismi kiradi. Natijada  $\pi^*2p_x$  – MO ning energiyasi  $\pi2p_y$  va  $\pi2p_x$  – MO ga qaraganda yuqori bo'ladi.

Turli element atomlarida hosil bo'lgan geteroyadroning molekularning MO lari esa energiyasining ortib borishi quyidagicha joylashgan:

$$(\delta 1S) < (\delta^x 1S) < (\delta 2S) < (\delta^x 2S) < (\pi 2p_y = \pi 2p_z) < (\pi 2p_y) < (\pi^* 2p_y = \pi^* 2p_z) < (\pi^* 2p_x)$$

MOU bo'yicha kimyoviy bog'ni tushuntirishda molekula hosil bo'lishda ishtirok etgan atomlardagi elektronlarni yuqorida keltirilgan MO larga joylashtiriladi. So'ngra bog'lovchi va bo'shashtiruvchi elektronlarning farqida effektiv bog'lovchi elektronlarning soni aniqlanadi. Agar u noldan katta qiymatga ega bo'lsa, molekula hosil bo'ladi. Effektiv bog'lovchi elektronlarning soni qancha ko'p bo'lsa, molekula shunchalik mustahkam bo'ladi.

Misollar:

1.  $H_2^+$  molekulasi. Bu molekulada bitta elektron bo'lib, uning asosiy holatdagi elektron konfiguratsiyasi  $H_2^+ [\delta \quad 1S]$ . Yagona elektron bog'lovchi orbitalga joylashadi. Kimyoviy bog'ning energiyasi  $E_D = 2.65\text{eB}$ , yadrolar orasidagi masofa  $r_e(H_2^+) = 1.06\text{A}$ .

2.  $H_2$  molekulasi. Asosiy holatdagi elektron konfiguratsiyasi  $H_2 [(\delta \quad 1S)^2]$  bo'lib molekuladagi ikkita elektron bog'lovchi orbitallarga joylashadi.  $E_D = 4.48\text{eB}$ ,  $r_e(H_2) = 0.741\text{A}$

3.  $He_2^+$  molekulasi. Asosiy holatdagi elektron konfiguratsiyasi  $He_2^+ [(\delta 1S)^2 \cdot (\delta^* 1S)]$  bo'lib, uning 3 elektronidan 2 tasi bog'lovchi va 1 tasi bo'shashtiruvchi MO da joylashgan. Yuqorida aytilgan qoidaga asosan bunday molekula mavjud.  $E_D = 3.68\text{eB}$ .

4.  $He_2$  molekulasi. Uning elektron konfiguratsiyasi  $He_2 [(\delta 1S)^2 \cdot (\delta^* 1S)]$ .  $He_2$  molekulasining 4 ta elektronining 2 tasi bog'lovchi va 2 tasi bo'shashtiruvchi MOda joylashgan bo'lgani uchun bunday molekula mavjud bo'la olmaydi. Haqiqatdan ham tajribada bunday molekula borligi aniqlangan emas.

5. Li molekulasi. Uning elektron konfiguratsiyasi  $Li_2 [(\delta 1S)^2 (\delta^* 1S)^2 (\delta 2S)^2]$ . 6 ta elektronning 4 tasi AOlarning K – qavatidan hosil bo'lib, ichki  $\delta \quad 1S$  orbitallarda joylashgan. Bu elektronlar joylashgan MOlar kimyoviy bog' hosil qilishda deyarli qatnashmaydilar. Shuning uchun bu 4 ta elektronlar molekulada atomdagi K – elektronlar xususiyatini saqlab qoladi. Shuni e'tiborga olib,  $Li_2$  ning elektron konfiguratsiyasini quyidagicha yozish mumkin:  $Li_2 [KK(\delta 2S)^2]$ .


Bundan ko'rinib turibdiki, molekulasida kimyoviy bog' bog'lovchi MO da joylashgan elektronlar jufti hisobiga hosil bo'ladi.  $E_D = 1.026\text{eB}$   $r_e(Li_2) = 2.67\text{A}$ .

6. CO molekulasi. Bu molekula 14 ta elektron bo'lib, ular MO larda quyidagicha joylashgan.

$$CO [KK(\delta 2S)^2 (\delta^x 2S)^2 (\pi 2p_y = \pi 2p_z)^4 (\delta 2p_x)^2]$$

Bularda 6 ta effektiv bog'lovchi elektronlar bor. Bog' uchinchi tartibli.  $E_D = 256\text{kkal/ моль}$ .

7. NO<sup>Q</sup> molekulasida. Bu molekulada ham 14 ta elektron bo'lib, uning elektron konfiguratsiyasi quyidagicha bo'ladi:




Ortiqcha bog'lovchi elektronlarning soni 6 ga teng. Bog'ning tartibi uchlamchi (N≡O<sup>Q</sup>).  $E_D = 251 \text{ kkal/mol}$ .

6- va 7- misollardagi CO va NO<sup>Q</sup> molekularlar bir xil elektron konfiguratsiyaga ega bo'lganligi uchun ularni izoelektron molekularlar deb ataladi. Bunday molekularlar mustahkamligi bir-biriga yaqin bo'lgan kimyoviy bog' hosil qiladilar, chunki bog'lovchi va bo'shashtiruvchi elektronlarning farqi ikkalasida ham bir xil. Yuqoridagi 6- va 7- misollardan ko'rinib turibdiki, ularning dissotsilanish energiyalari haqiqatdan bir-biriga yaqin.  $E_{CO} = 256 \text{ kkal/mol}$ .  $E_{NO} = 251 \text{ kkal/mol}$ .

Yana misol:

Kislorod molekulasida O<sub>2</sub> valent bog'lar usuli bo'yicha O=O bo'lishi kerak edi. Lekin O<sub>2</sub> molekulasida juftalashmagan elektronlar bor. Buni O<sub>2</sub> ning paramagnit xossaga ega ekanligini isbotlaydi. Shuning uchun O<sub>2</sub> molekulasining tuzilishi




K – qavatsiz

Bo'shashtiruvchi elektronlar – 4ta

Bog'lovchi – 8 ta

Demak, bog'ning tartibi 2 ga teng: O=O.



Bo'shashtiruvchi elektronlar – 3 ta

Bog'lovchi – 8 ta

Elektron bo'shashtiruvchi MOdan chiqib ketadi, shuning uchun O<sub>2</sub><sup>+</sup> da bog' mustahkamroq.

O<sub>2</sub> da  $E_D = 118 \text{ kkal/mol}$ .

O<sub>2</sub><sup>+</sup> da  $E_D = 153 \text{ kkal/mol}$ .

## **XYUKKEL USULI. REZONANS NAZARIYASI. π - BOG'NING**

### **TARTIBI. π - ELEKTRON ZICHLIK. OZOD VALENTLIK INDEKSI.**

Keyingi yillarda organik reaksiyalarni tushuntirishda, biokimyo va molekulyar biologiya sohalarida 1931 yilda Xyukkel tomonidan qilingan atom orbitallarning chiziqli kombinatsiyasidan iborat bo'lgan molekulyar orbitallar usuli keng qo'llanilmoqda. Xyukkel metodi keyingi ishlab chiqilgan xamma kvant kimyoviy usullarning asosida yotadi va shuning uchun Xyukkel metodini o'rganib olgan talaba mustaqil ravishda boshqa usullarni ham o'zlashtirib olishi mumkin.

Oldingi mavzulardan birida rezonans nazariyasi (ya'ni valent bog'lar usulining variantlaridan biri bo'lib, valent sxemalarining ustma-ustligi usuli deyiladi) dan foydalanib, delokallashgan π-bog'lar sistemasida harakat qilayotgan elektronni bir o'lchamli potentsial o'ra modeli yordamida ko'rib chiqish mumkin degan fikrni aytgan edik (masalan, benzol molekulasida π - elektronlar delokallashgan bo'lib, Dyuar va Kekule struktura formulalari (5 ta tip) dan foydalanib bu usul bilan (rezonans nazariyasi orqali) benzoldagi kimyoviy bog'lar



kvant mexanik hisoblangan). Lekin bu usul juda qo'pdir. Bundan tashqari bu usul yordamida faqat elektronlarning energiya pog'onalari (urovni energii) aniqlanadi va elektron zichlik va bog'ning mustahkamligi haqida fikr yuritishga imkoniyat bermaydi.

Xyukkel usul rezonans nazariyasidan ancha ko'p ma'lumot beradi. Xyukkel usulini ishlatish jarayonida 3 ta tushuncha vujudga keladi. Bu tushunchalar zamonaviy organik kimyoda juda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalardir:

- 1)  $\pi$  - bog'ning tartibi;
- 2)  $\pi$  - elektron zichligi;
- 3) Ozod valentlik indeksi.

Keyingi ma'ruzalarda bu tushunchalarda batafsil to'xtaymiz. Xozirgi biz Xyukkel usuli yordamida delokallashgan  $\pi$  - bog'i hosil qilgan elektronlarning to'lqin funktsiyasi va energiyasini aniqlashni ko'rib chiqamiz.

Xyukkel usulini eng oddiy molekula – etilen  $CH_2 = CH_2$  molekulasigi tadbiqini ko'ramiz.

Etilen molekulasida 12 ta valent elektronlari bor. Shulardan 10 tasi  $\delta$  - bog'ni hosil qiladi. Biz bu bog'larni e'tiborga olmaymiz va shuning uchun ularni tekshirmaymiz. Unda  $\pi$  - bog'ni hosil qilgan 2 ta p – elektroni ham bor. Biz ana shuni tekshiramiz. Bu 2 elektronlarning har biri uchun molekulyar orbitallar usulining talaba bo'yicha uglerod atomlarining p – elektronlarining to'lqin funktsiyalaridan  $\varphi_1$  va  $\varphi_2$  lardan tuziladi.

Demak, molekulyar orbitalni 2 ta  $p_z$  – atom orbitallarning chiqish kombinatsiyasi sifatida bayon qilish mumkin:

$$\psi = c_1\varphi_1 + c_2\varphi_2 \quad (1)$$

$c_1$  va  $c_2$  koeffitsientlarini topish uchun avval aytganimizdek, asriy tenglamalar sistemasini (turkumini) tuzamiz va asriy determinantni 0 ga tenglab olamiz.

Etilen molekulasida uchun E va  $\psi$  ni topish uchun xuddi oldingi lektsiyada keltirib chiqarilgan asriy tenglamalarni keltirib chiqaramiz:

$$\begin{aligned} (H_{11} - ES_{11})C_1 + (H_{12} - ES_{12})C_2 &= 0 \\ (H_{21} - ES_{21})C_1 + (H_{22} - ES_{22})C_2 &= 0 \end{aligned} \quad (2)$$

Bu erda  $S_{11} = \int \varphi_1^2 dv = 1$ ;  $S_{22} = \int \varphi_2^2 dv = 1$ ; normallanuvchi integrallar;

$H_{11} = H_{12} = \int \varphi_1 H^2 \varphi_2 dv$  - almashinish integrali; rezonans integrallari;

